Annotatsiya Bugun hayotni chet tillarisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Globalizatsiya jarayoni tezlashgan sari chet tilini o‘rganish zamon talabi bo‘lib boryapti. Bugun har qanday sohada yaxshi bir mutaxassis bo‘lish uchun ingliz, nemis va boshqa xorijiy tillarni bilish oddiy talabga aylanib qoldi. Maqolada keltirilgan xulosa va fikrlar tillarni o‘rganishda yangi so‘zlarni tez eslab qolish va ulardan foydalanish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi degan umiddaman.

Kalit so‘zlar: “bir tilli”, “ko‘p tilli” lug‘atlar, iboralar, rasmlar, antonim-, sinonim so‘zlar, smartfonlar

Siz juda ko‘p yangi so‘zlarni o‘rganishingiz kerak, ammo ularni eslab qolish qiyin. Tez va oson yangi so‘zlarni yodlashni o‘rganing!

Chet tilini (nemis tilini) o‘rganish bu biz xayolimizga sig‘dirganchalik qiyin emasligini kundankunga yaxshiroq tushunib yetyapman. Bu uchun muhimi chet tili(nemis tili)ni o‘rganishda eng oson yo‘lni tanlay olishdir. Bizda aksar ta‘lim muassalarida qo‘llanayotgan eski metodika ancha eskirdi va tilni o‘rganish bugungi kunda o‘qituvchidan ko‘ra aynan til o‘rganuvchining o‘ziga bog‘liq bo‘lib qoldi.

Chet tili(nemis tili)ni o‘rganayotganda, sizning so‘z boyligingizni doimiy ravishda to‘ldirish juda muhim. Biroq hamma ham bunga erisha olmaydi. Sizga yangi so‘zlarni yanada yaxshiroq yodlab olishga yordam beradigan 9 maslahatni taklif etaman. Bu maslahatlarlardagi chet tilidagi so‘zlarni garchi nemis tilida bayon qilgan bo‘lsamda, maslahat umumiy chet tillardagi so‘zlarni tez va oson eslab qolish uchun ham tegishli. Ishonamanki, bu maslahatlar faqat nemis tilida emas balki barcha chet tillarni o‘rganishda va yangi so‘zlarni tez va oson eslab qolishda asqotadi.

1. Lug‘atlarning o‘rni

Menimcha chet tillarni o‘rganishda va so‘zlarni esda saqlashda qanday lug‘atdan foydalanishingiz juda katta ahamiyatga ega deb o‘ylayman. Sizlarga hozir bitta nemis tili misolida namuna ko‘rsataman; bunda biz “bir tilli” «Langensheidt» lug‘atdan foydalanishimiz kerak, ya‘nikim siz bitta so‘zni yodlash bilan birga bir nechta so‘zni yodlaysiz ‘Auto’ so‘zini oladigan bo‘lsang, bitta bu so‘zni mashina yoki avtomobil deb yodlash o‘rniga “das Auto ist ein geschlossenes Fahrzeug, das gewoenlich vier Raeder hat und von einem Motor angetriben wird und besonders zur Befoerderung von Personen dient”. Shunday qilib siz bitta so‘z evaziga bir nechta so‘zni ham yod olasiz va bu so‘zlarni umumiy qilib takrorlasangiz, bir umr siz bilan qoladi...

2. Birlashtiruvchi tarmoqlar yarating

Bizning miyamiz biz o‘qigan narsalarni idrok etadi va uni tasvirlar, g‘oyalar va his-tuyg‘ularga aylantiradi, so‘ngra yangi ma‘lumotlar va biz allaqachon bilgan narsalar o‘rtasidagi aloqani hosil qiladi. Xotiralash jarayoni shunday bo‘ladi – yangi eski bilan birlashadi.

Yangi so‘z yoki tushunchani siz allaqachon bilganingiz bilan birlashtirsangiz, miya o‘z vaqtida topish va eslab qolish osonroq bo‘ladi. Misol uchun: siz avvaldan “yengil mashina” so‘zini nemis tilida tarjimasini bilasiz va siz “qizil” so‘zining nemischasini o‘rgandingiz, ayni damda esa siz bu ikki so‘zni bog‘lab o‘rgana olasiz ya‘ni “yengil mashina qizil” “Das Auto ist rot”. Bu birlashtiruvchi tarmoqlar se‘zilarli tarzda sizga yoram beradi.

3. Iboralarni eslab qolish

Iboralarni eslab qolish juda muhim, ammo nemis tili, boshqa har qanday til singari, nafaqat tushunchalar to‘plami, balki odamlar bilan muloqot qilish va o‘z fikrlarini bildirishda foydalanadigan vositadir. Matnda muayyan so‘zning qanday ishlatilishiga misollar toping. Misollar yordamida iboralarni eslab qolish mumkin.

Nafaqat so‘zni, balki uning yonidagi so‘zlarni ham yozing. Misol uchun: “wieder auf die Beine kommen” iborasi o‘zbek tiliga “oyoqqa turmoq” ma‘nosini beradi.

4. Rasmlardan foydalaning

So‘zning ma‘nosini eslab qolish uchun kichik rasmlarni chizish yoki topish orqali ularni yodda



saqlash osonlashadi. Bizning miyamiz vizual ma'lumotlarni yaxshiroq o'qiydi. So'zning ma'nosini aks ettirgan kulgili rasmni chizing, shunda siz uni tezroq eslaysiz.

5. Hikoyalar (insholar) yozing

Nemis tilini o'rganuvchilar ko'pincha yangi so'zlar juda ko'p ekanligidan shikoyat qiladilar va ularni eslab qolish qiyindek tuyuladi. Siz so'zlarni tezda o'rganish uchun ishlatishingiz mumkin bo'lgan bitta usul mavjud. Nemis tilidagi barcha so'zlar kiritilgan har qanday, hatto kulgili hikoyani yozing. Uni batafsil tasavvur qiling. Hikoyalarni, ayniqsa, g'alati voqealarni osongina eslaymiz. Bu so'zlarni kulgili uslubda birlashtirish orqali hikoya tuzsangiz so'zlarni yodda saqlash yanada osonlashadi. Chunki bu bilan siz o'rgangan so'zlaringizni amaliyotda qo'llagan bo'lasiz.

6. Antonim va sinonimlarni eslang

Qarama-qarshi ma'noga ega so'zlarni (antonimlarni) va o'xshash ma'noga ega so'zlarni (sinonimlarni) juft qilib yodlang. Biz shunga o'xshash va qarama-qarshi narsalarni tezda eslaymiz, chunki miya ular orasida aloqa o'rnatadi. Misol uchun: groß-klein(katta-kichik), geizig-großzügig(xasis-sahiy) und so weiter (va hakoza)

7. Asosiysi vaqt

Xotiralash jarayonlarini o'rganuvchi psixologlar narsalarni tez va uzoq vaqt yodlab olishning yaxshi usuli bor deb ta'kidlashadi. Yangi so'zni taniganingizdan so'ng uni ishlating. 10 daqiqadan so'ng uni yana ishlating. Bir soatdan keyin. Ertasi kuni qaytadan. Keyin bir hafta davomida bu so'z ishtirokida gaplar tuzing. Shundan so'ng, uni eslashga harakat qilishingizga to'g'ri kelmaydi – yangi so'z boyligi siz bilan abadiy qoladi.

8. Smartfoningizdan yangi so'zlarni yod olishda va esda saqlashda samarali foydalaning

Til o'rganish uzun va mashaqqatli jarayon bo'lgani sababli, uni iloji boricha osonlashtirishga harakat qilishingiz kerak. Bunda sizga smartfoningiz qo'l keladi. Internetda smartfonlarga o'rnatib olish mumkin bo'lgan nemis tilini o'rganish dasturlari minglab topiladi. Til o'rganish uchun siz nemis tilida so'zlashiladigan mamlakatda bo'lishingiz shart emas. Shunchaki nemis tilini kundalik hayotingizni ajralmas qismiga aylantiring. Masalan kundalik daftaringiz (agar bo'lmasa tutishni maslahat beraman, hech bo'lmaganda til o'rganish uchun) qaydnoma, eslatma hattoki haridlar ro'yxatini ham nemis tilida yozing. Telefoningiz tilini ham nemis tiliga o'zgartiring, nemischa radio va podcast(eshittirish)lar tinglang

9. Til asosini takrorlash tashkil etadi

Tilni doimiy takrorlashsiz o'rganib bo'lmaydi. Kuniga 10 yangi so'z yodlashingiz mumkin, ammo bu so'zlarni 1-2 kundan keyin takrorlamangiz esingizdan chiqib ketishi aniq. Bunda eng samarali yo'llardan biri flesh kartalardir. Flesh kartalar yordamida siz avtobusda, metroda va boshqa transport vositalarda ham so'z yodlay olasiz. Yoki bo'lmasa, ko'zingiz eng ko'p tushadigan joylardan samarali foydalanishingiz mumkin.

Foydalanilgan adobiyotlar:

1. Idiomatiche Redewendungen von A-Z. Langenscheidt Verlag Enzyklopädie. ISBN 3-324-00597-3
2. Langenscheidt Großwörterbuch Deutsch als Fremdsprache für Android. Langenscheidt KG, Berlin and Munich and Langenscheidt Sp. Z o.o., Warsaw. Paragon Software Group, 2012
3. Quasthoff, Uta: Entwicklung mündlicher Fähigkeiten. In: Bredel, Ursula et al. (Hrsg.): *Didaktik der deutschen Sprache*. Paderborn. Schöningh 2003, 107-120.
4. Schuster, Karl: Mündlicher Sprachgebrauch im Deutschunterricht. Hohengehren: Schneider 1998.
5. Steinig, Wolfgang /Huneke, Werner: Miteinander sprechen. In: *Sprachdidaktik Deutsch. Eine Einführung*. Berlin: E Schmidt Verlag, 3., erw. Aufl. 2007, 67-89.



BOSHLANG‘ICH SINFLARDA INGLIZ TILINI O‘RGATISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH

Gulmamatova Mohira Obidjon qizi

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti talabasi.

Telefon: +998931093203

anvarovamohira1996@gmail.com

Ilmiy rahbar: ingliz tili nazariy aspektlari №1 kafedrasida katta

o‘qituvchisi Samiyeva Sayyora Nematovna

Annotatsiya: Bugungi kunda zamonimiz muallimlarga an’anaviy dars o‘tishdan chetlashgan holda, darslarni noan’anaviy tarzda tashkil qilishni talab etmoqda. Ayni dars jarayonida o‘qituvchi kreativ bo‘lishi, shu jarayonda o‘quvchilar bilan o‘qituvchi-o‘quvchi, o‘quvchi -o‘quvchi, o‘quvchi -o‘qituvchi kabi o‘zaro harakat turlaridan foydalanadi. “Molekula”, “Kungaboqar” va hakazo kabi o‘yin metodlarini qo‘llanilishi o‘rganiladi.

Tayanch so‘zlar: kreativ, vizual, audial, “Molekula”, “Kungaboqar”, “Issiq kartoshka”, “Zanjir”.

Zamonaviy boshlang‘ich ta’limdagi eng asosiy va ijobiy o‘zgarishlarga sabab bo‘lgan qarorlardan biri bu, O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2012-yil 10- dekabrda “Chet tillarining o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish chora –tadbirlari to‘g‘risida” PQ-1875-sonli qaroridir. Ushbu qaror asosida chet tillarini, asosan ingliz tilini o‘rganish umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 1-sinflaridan o‘yin tarzidagi darslar va og‘zaki nutq darslari shaklida, 2-sinflardan boshlab esa, alifbo, o‘qish va grammatikani o‘qitish bosqichma-bosqich boshlanadi. Bu qarorga muvofiq, 2013-2014 -o‘quv yilidan e’tiboran, umumta’lim maktablarining birinchi sinflarida xorijiy tillarni o‘yin tarzidagi mashg‘ulotlar va og‘zaki nutq darslari shaklida uzluksiz o‘rgatish yo‘lga qo‘yildi.

Boshlang‘ich sinflarda chet tillarini o‘rgatishda o‘quvchining yoshi, fiziologik, psixologik xususiyatlarini hisobga olish kerak. Qarorda ta’kidlanganidek, boshlang‘ich sinflarda o‘yin tarzidagi darslar va og‘zaki nutq darslari shaklida chet tillarini o‘rgatishni amalga oshirish, haqiqatdan, kichik yoshdagi o‘quvchilarga mosligidir. Ta’limda o‘yin texnologiyalaridan foydalanish, chet tillarga o‘qitishning eng samarali vositalaridan biridir. O‘yin davomida o‘quvchilarning tafakkuri, dunyoqarashi, fikrlashi kengayib boradi. Olimlar ta’limda o‘yin orqali yondashuv ta’lim jarayonini osonlashtiradi deb hisoblaydilar. Ushbu ta’lim usul ta’lim jarayonini nafaqat osonlashtiradi, balki o‘quvchilarning bu fanga qiziqishini kuchaytirib, ularni chuqur bilim olishga undaydi. O‘yin tarzidagi darslar bolalarning og‘zaki nutqini rivojlanishiga yordam beradi. Birinchi sinf o‘quvchilari rasmi yoki videoli rolklarni juda yaxshi ko‘rishadi. Ayni mana shu dars o‘tish mobaynida rasmlar va videolarni ko‘rish va eshitish mobaynida ularning vizual hamda audial qobiliyatlari rivojlanadi. Ushbu qobiliyatlari orqali bola ingliz tilidagi yangi so‘zlarni tezda yodlab oladi. Birinchi, ikkinchi sinflarga yangi so‘zlarni yodlatishda va ularni oson va tez esda saqlab qolishlari hamda og‘zaki nutqini rivojlantirishda “Molekula”, “Issiq kartoshka” (Hot potato), “Zanjir” o‘yinlari juda mos va qulay.

“Molekula“ o‘yini. Bunda o‘quvchilarni teng ikki guruhga bo‘lamiz (biz kimyoviy jihatdan bilamizki, bir qancha molekulalar qo‘shilib bir moddani tashkil qiladi, ayni shu o‘yin orqali o‘quvchilar so‘z orqali bir butunlikni tashkil qilishi kerak). 1-guruh -“Fruits” (Mevalar), 2-guruh - “Vegatables” (sabzavotlar). Magnitli doskaga o‘qituvchi sabzavot va mevalar rasmlarini yopishtirib qo‘ygan bo‘ladi. So‘ng har bir guruhdan navbat bilan bittadan o‘quvchi chiqadi, unga o‘qituvchi sabzavot va mevalar nomlarini ingliz tilda aytib turadi, har bir guruh a’zolari ularni o‘zbek tilidagisini aytib doskada topgan so‘zlarini rasmlarini olib o‘z guruhlarini yasay boshlaydi. Bunda har bir o‘quvchi bir molekula hisoblanadi. So‘zni topa olmagan o‘quvchi joyida qoladi va guruhga qo‘shila olmaydi. O‘yin oxirida har bir guruhdagi molekulalar sanaladi. Molekulasi ko‘p bo‘lgan guruh g‘olib bo‘ladi. Bu o‘yinni afzalligi shundaki, o‘quvchilarni topqirlikka, guruh bilan ishlashga hamda og‘zaki nutqini rivojlanishiga yordam beradi. Yangi so‘zlarni yodlashda samarali o‘yin turlaridan biri bu - “Issiq kartoshka“ va “Zanjir” o‘yinlaridir. “Issiq kartoshka” o‘yinida kichik koptok orqali o‘qituvchi (misol uchun, meva va sabzavotlar o‘rganilayotgan bo‘lsa) ingliz va o‘zbek tilida ushbu so‘zlarni aralashtirib so‘raydi. O‘qituvchi



“Apple” deb ko‘ptokni bir o‘quvchiga uloqtiradi, o‘quvchi ko‘ptokni ushlab “Olma” deb ko‘ptokni yana o‘qituvchiga qaytaradi. Agar o‘quvchi to‘g‘ri topsa, rag‘batlantiruvchi kartochkalar taqdim etiladi, agar xato bo‘lsa yoki o‘quvchi ko‘ptokni qo‘lida ko‘p vaqt ushlab qolsa, o‘qituvchi “Hot Potato” deydi va u o‘quvchini o‘yindan chiqaradi. O‘yin shu tarzda davom ettirilib, o‘yin oxirida bir o‘quvchi g‘oladi. Bu o‘yinning afzalligi - o‘quvchilarning aqliy faoliyatini tezlashtirib, hotirasini yaxshilashga yordam beradi, ayni shu so‘zlarni o‘zlashtirmayotgan o‘quvchining audial qobiliyati oshib, so‘zlar takrorlanishi orqali ularni qayta –qayta eshitib yodlab oladi. ”Zanjir“ o‘yini ham shu o‘yinning davomi bo‘lib, o‘quvchilar yodlagan so‘zlarini bog‘lab aytishlari kerak bo‘ladi. Masalan: o‘qituvchi “Banana” so‘zi bilan o‘yinni boshlasa, keyingi o‘quvchi, oldin ustoz aytdigan so‘zni aytadi, va ya‘ni, ”Banana”, keyin o‘zi uchun “Orange” deydi. Bunda banana- orange..... va shu holda o‘quvchilar zanjirni uzmagan holda davom ettiradilar. Zanjirni uzgan o‘quvchi o‘yinni tark etadi. O‘yin so‘nggida zanjirni uzmay oxirigacha borgan o‘quvchi g‘olib bo‘ladi. Bu o‘yin o‘quvchilarning bir vaqtda darsda ishtirok etishini ta‘minlaydi.

“Kungaboqar” o‘yin metodi uchinchi va to‘rtinchi sinflar uchun mos bo‘lib, bu o‘quvchilar allaqachon ingliz tilida yozishni va o‘qishni bilganliklari uchungina mos keladi. O‘yin shartida sinf teng ikki guruhga bo‘linadi, yumaloq shaklda o‘tiriladi. O‘qituvchi kingaboqarning o‘rta qismiga bir guruhnikiga “LIKE”, ikkinchisiga “CAN” fe‘llarini yozib qo‘yadi (masalan, o‘qituvchi fe‘l mavzusini o‘tgan bo‘lsa) va shu fe‘llar ishtirokida gaplar tuzadi. O‘quvchilar barglariga gap qismlarini yozadilar (Bu shunday bo‘ladi: bir bargga “I” so‘zi o‘rtada yumaloq qismi ya‘ni “LIKE”, keyingi bargga masalan, “Ice- cream” so‘zi bo‘ladi. O‘quvchilar o‘zlari tuzgan gapni o‘qishadi: “I like ice-cream”. Ikkinchi guruh ham o‘zlari uchun berilgan so‘z bialan huddi shunday harakatni amalga oshiradilar. Qaysi guruh birinchi bo‘lib o‘zlari uchun berilgan kungaboqar barglarini so‘zlar bilan to‘ldirib gaplar tuzsa, shu guruh g‘olib bo‘ladi. Bu o‘yinning foydali jihatlari shundaki, u o‘quvchilarga guruh bo‘lib ishlashni o‘rgatadi, so‘ngra darslar mobaynida yod olgan so‘zlarini amalda ishlatish orqali xotirasini yanada charxlaydi.

Xulosa o‘rnida aytish joizki, ingliz tilini o‘qitishda o‘quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda, ulardagi chet tilini o‘zlashtirishga bo‘lgan qiziqishi, ehtiyojini to‘la qondirishga, hamda kreativlik mahoratini va dunyoqrashini oshirishga yordam beruvchi innovatsion o‘yin texnologiyalarini har bir dars amaliyotiga ta‘tbiq etilishi, chet tillarini o‘rganishdagi kelib chiqadigan muammolarning amaliy yechimini ta‘minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 10 dekabrda “Chet tillarini o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish chora -tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-1875 - sonli qarori.
2. A.Musurmanova ,N.J.Isaqulova , M.T.Jumaniyozova , A.Sh.Jumaev. Umumiy pedagogika, II –qism. Toshkent -2018.
3. S.S. Xan, L .H.Jo‘rayev , O.N.Maxsudova, K.F.Inogamova. Kid’s English 1 (Teacher’s book) TOSHKENT “O‘ZBEKISTON”, 2013.
4. S.S. Xan, L .H.Jo‘rayev , O.N.Maxsudova, K.F.Inogamova. Kid’s English 2 (Teacher’s book). TOSHKENT “O‘ZBEKISTON”, 2014.
5. S.S. Xan, L .H.Jo‘rayev , K.F.Inogamova. Kid’s English 3(Teacher’s book) TOSHKENT “O‘ZBEKISTON”, 2015.
6. S. Xan, L .Jo‘rayev , M.Ogay. Kid’s English 4(Teacher’s book). TOSHKENT “O‘ZBEKISTON”, 2016.



MUHANDISLIK GRAFIKASINING DIZAYN BILAN BOG‘LIQLIGI VA HAYOTIMIZDAGI O‘RNI.

ADU, San‘tshunoslik fakulteti
TSMG yo‘nalishi 2-bosqich 201-guruh talabasi
G‘ulomov Bunyodjon bungulomov@gmail.com
+998993299835

Anotatsiya: ushbu tezisda muhandislik garafikasi va dizayn o‘zaro bog‘liqligi, hayotimizdagi tutgan o‘rni va bugungi kunda ushbu sohalarida yetuk kadrlar tayyorlashga qaratilayotkan etibor haqida qisqacha yoritilgan.

Kalit so‘zlar: muhandislik, dizayn, fazo, obekt, etika, estetika, model, magistratura funksional.

“Dizayn „(inglizcha design - loyiha, chizma, rasim)narsalar muhitini estetik va funksional sifatlarini shakllantrish maqsadiga qaratilgan faoliyat turi hisoblanadi. Malumki insonlar doim go‘zallikka va qulaylikka intilip kelishgan shu boisdan doim har bir obektning tashqi korinishi ishlashini davrlar mobaynida rivojlantrip modellashtirib borishadi. Masalan, binolarni olsak avval faqat to‘rtburchak shaklda qurilgan bo‘lsa hozirda koplak boshqa shakillardan ya‘ni yarim aylana, uchburchak, romb, vahokazolar. Bu binolarning tashqi korinishini bezashda yengil metallakanstruksiyalardan oynalar va marmar toshlardan foydalanilayotgani uning dizayni va va chiroyini yana va yana ochmoqda nafaqat binolar mebellar ho‘jalik jihozlariyu avtomobillarimizgacha Kundan kun yangi dizayn va o‘zgacha qiyofa aks etmoqda. Shu o‘rinda aytib o‘tish kerakki dizayn bevosita muhandislik grafikasi bilan uzviy bog‘liqdir.

“Muhandislik grafikasi „ - fazodagi turli uch o‘lchamli obektlarni va tekislikdagi ikki o‘lchamli chizmalar ko‘rinishidagi fazoni grafik modellari asosida obektlarni va narsalarni tasavvur qilish ularni konstruktiv va geometrik tuzilmalarini o‘rganadi. Muhandislik grafikasida aniq hisob kitob va chizmalarni aniq tushunarli tarzda ifoda etish va ko‘rsatishni talab etadi.

Ko‘rinib turibdiki dizayn va muhandislik garfikasi bir birini to‘ldirgan holda asrlar mobaynida rivojlanib kelmoqda. Dizayn obekt va narsa buyumlarning tashqi ko‘rinishi zamonaviyligi go‘zalligi haqida ish olib borsa, muhandislik garafikasi esa uning qanday qurish kerakligi chidamliligi va boshqa jihatlari haqida chizmalar asosida ish olib boradi va ohir oqibat bu ikki yonalish birgalikda bir birini to‘ldirib boradi. Hozirgi kunda bu ikki soha juda ser daromad hisoblanadi va albatta bu sohalarida ham ilg‘or texnologiyalardan foydalaniladi. Masalan: muhandislik grafikasida AutoCAD tizimidan kompyuter yordamida chizmalar ishlanadi va bu albatta bir qator yengillik va aniqlik chizmani tez va sifatli bitirishga yordam beradi.

Mustaqillikka erishganimizdan so‘ng bir qator qurib bitkazilgan imorat va sanoat binolar jumladan Asakadagi avtomobil giganti - Andijon avtomobil zavodi, Buxoro neft qayta ishlash zavodi, Xo‘jobod gaz ombori, Urganch shakar zavodi kabilar ilg‘or texnologiyalar va chiroyli dizayn asosida qad ko‘tardi. Hozirgi kunda esa Toshkent City va bir qator viloyatlarimizda qad ko‘tarayotgan Bino va inshootlar yuksak dizayn va muhandislikning murakkab va ulkan yutuqlaridan barpo etilmoqda.

Shuni takidlab o‘tish lozimki muhtaram Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev aytganlaridek “Bir haqiqatni hech qachon esimizdan chiqarmasligimiz kerak: O‘zbekistonni yangi qiyofasini yaratishga kirishgan ekanmiz madaniyat va san‘atga katta etibor berishimiz va albatta yaxshi va yetuk malakali kadrlar tayyorlashga katta etibor berishimiz, shahar va megapolislarimiz dizaynini o‘zgartirishimiz kerak”.

Muhandislik grafikasi va dizayn sohasini yanada rivojlantirish va malakali kadrlar tayyorlash maqsadida kollej va oliy talim muassasalarida dizayn va tasviriy san‘at va muhandislik grafikasi, amaliy san‘at yo‘nalishlarida ta‘lim berilmoqda. Masalan:

Respublika dizayn kolleji va boshqa viloyatlar san‘at san‘at kollejlari, Kamoliddin Behzod nomidagi rassomchilik oliy bilim yurti, Andijon Davlat Universiteti kabilardir.

5A110802 Muhandislik grafikasiva dizayn nazariyasi yo‘nalishi bo‘yicha magistraturagaham o‘qitish va bilim malakani oshirish kelajak avlodga shu sohada talim berishlari uchun zamin yaratilmoqda. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki Muhandislik garfikasi va dizayn bir biri bilan uzviy bog‘liq va insonlar hayotini yaxshilashga boyitishga hizmat qilishini anglashimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Chizma geometriya. Toshkent-2006 (O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi tomonidan oliy o‘quv yurtlari uchun darslik sifatida tavsiya etilgan) prof. SH. MURODOV.

2. WIKIPEDIYA sayti.

3. <http://new.tdpu.uz>. Uz.unansea.com saytlari

4. Dizayn tarixi. Toshkent-2014 (Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik sifatida tavsiya etilgan) D.Zuparova. N.Karimova.

**SPECIFICITY OF CONCEPTUALIZATION OF OBJECTS IN SPORTS
TERMINOLOGY.(ON EXAMPLE OF TAEKWONDO TERMS)****Kholjigitova Dilbarkhon Bakhodir qizi****Official of the Central Council of the Youth Union of Uzbekistan.****Independent seeker.****Baishova Diana Leonidovna****teacher in Linguistics and literary studies department,****UzSWLU, Tashkent,Uzbekistan****Research advisor**

Annotation. In the end of the twentieth century. the sport has become a real event. People started en masse and playing sports at all levels. In the modern world of leadership, a healthy lifestyle is very popular, and sports have usually become available to anyone who wants to take care of your physical condition. These days, even those who previously preferred to be just a passive spectator are also showing an interest in sports. In the influence of popular culture and fashion, many people are changing their lifestyles. As everyone wants to look good and stay healthy, sport is becoming a necessary part of our lives. Sports terminology is one of the most actively evolving terminology. The consistency of sports terminology is related to the understanding of sport as a type of professional activity. The relevance of this study stems from the need to analyze sports terminology as an integral system. The aim of the work is to describe the characteristics of terminology and differentiation of models sports terminology and jargon dictionary.

Key words. Sport, Martial arts, Taekwondo, time-loss, Greek, injuries, terms, sports terminology, extralinguistic reasons, terminostagma, derivatives, methods, analyze, jargon dictionary, ap chagi.

Introduction. Materials and methods. Today, the role of sports is growing. New sports, existing sports disciplines specialize, sports are more professional. Therefore, the language responds to these innovations, fills the words of sports. and phraseology, the simultaneous loss of obsolete terms by the process. The study of relevant sports conditions is a wide range of athletes, coaches, sports workers, student-athletes. Sports terms are used in the pages of sports programs and reviews, television and radio broadcasts, newspapers and magazines. Also, sports terms are often found in fiction, knowledge of which is necessary for any educated person. There is no doubt that sport is a special field of activity that is sufficiently required linguistic equipment. Thus, the sports dictionary is a professionally limited and rightly relevant field. See sports names as terms and they have structural features. organizations. Sports nominations are based on defined definitions, ie. strict logical conformity to the concept. For example, as a symbol for a particular type of world sport, "specialized world football", the word "snowboard" is called a sport "patches on a snowboard and special acrobatic elements semi-oval board" Results. and with specific disciplines. For example, there are individual and team sports, summer and winter, oriental martial arts, etc. New equipment and sports disciplines for "equipping", a specialized dictionary uses similar thematic groups Taekwondo is one of the official competitions of the modern Olympic Games. It is a sport that mainly uses the hands and feet for wrestling or confrontation. Taekwondo originated on the Korean Peninsula. Taekwondo was a demonstration project at the 1988 Olympic Games; There were flying competitions at the Barcelona Olympics; it became an official competition at the 2000 Sydney Olympics. Taekwondo The world is divided into two systems: the International Taekwondo Federation (ITF) and the World Taekwondo Federation (WTF). The Olympics uses the WTF system.

Taekwondo, TAE, means kicking and beating; punch (KWON), punch; Do (DO) is an artistic method. Taekwondo is an artistic method that uses boxing and legs. It is based on footwork and accounts for 70% of its footwork. There are 24 sets of Taekwondo; as well as guns, pickups, locks, self-defense, and more than 10 basic kung fu types.

Methods. Taekwondo is a Korean martial art developed through East Asian culture. TAEKWONDO ("TXE" - foot or kick; "KVON" - punch or punch;

"DO" is the method of knowing or the method of arms and legs) kicking forward in Korean (AP-CHAGI)



punch zine protection technique) .Finger tips in Korean (DREAM KYT)

Shelves:

Chariot milk - pay attention

Jumbi Sogi - “Prepare”

Ap sogi - tor ustun

Ap cubi - wide front column

The dvit cube is a wide position with the center of gravity shifted to the back leg

Blocks:

Are palmok makki - Low level block

Grandma Palm Mack - Medium Block (Inside)

Olgul palmok makki - High level block

Han sonnal motom yap mackey - mid-level side block

Hand strokes:

Pande jirugi - Fist punch of the same name

Baro jirugi - counter punch

Dubon jirugi is a double blow

Kick:

Ap chagi - Kick forward

Basic commands:

car - carefully

künné - bow

junby - get ready

si jack - start

bal bako - change position

tiro dora - a change of direction by 180°

swimsuit - lined up

kalo - stopped

kesok - continued

kyman, baro - stop, end

The brush - convenient

hecho - separated

change - change

Key terms:

anyo hashimnika - hello

hamsamnida - thank you

internal - internal

bakat - external

up - forward

dvit - back

tolio - side

jupe - to the side

nerio - above

before - the way

ki - energy

kihap - war cry

sabum is a teacher with a black belt

sabum nim - teacher over 4, master, teacher

kyo sah nim - colored belt master

tvio - jump

hecho - dagger, separate

sul - art

kerugi - duel

jayu - free

tee - belt

sambon - three times

dubon - double



sambon kerugi is a three-stage basic sparring
ibon kerugi is a two-stage basic sparring
hanbon kerugi - one step basic sparring
hosinsul - self-defense
poomsae - a set of formal exercises, a form of movement
kyok pa - to test the force of impact by breaking objects
dobok is a taekwondo fighter suit
dojan - taekwondo gym
Kibon is the basic technique
donjak - actions
hourly shelves
kisul - technique
hogu - protector (vest)
dodyang - workplace
hanbon - a step
teguh - “upper limit”, the name of the student’s poomsa
kyonggo - warning
gamjom - penalty points
jungle - blue
bracelet - red
from - master’s degree
pum - children’s workshop level
gip - student degree

Results. “Sport / discipline” - “athlete” - “sports shell or structure” (wind surfing -windsurfer - wind surfing, kiting - kiter / kiterider - kiteboard, carving - carving - carving / carving) or “sports discipline” - “room or playground for trainings and competitions on this subject” (grind - grind-box, driving - driving interval); similar groups can be crossed and filled with other names (jibbing) - jibber - jiba - jib park, putt -patter - put - put green). Terminological systems related to the existence of what is relevant, the specific features of sport as a social phenomenon, and activities as a specific field of the professional. According to experts, “Any terminological system can be evaluated in terms of both content, ie. it is a reflection of the modern level of a particular science or practice and the positions of the logical harmony of the construction of the system, as well as its linguistic design. Due to the lack of distribution of nominations is carried out regularly not only for extralinguistic reasons, but also in fact linguistic. collected, then professional jargon, phraseological units, paraphrases, jargons, and metaphors. Modern sports language includes a variety of terms, professionalism and jargon used by athletes, sports media and simply sports fans.

Discussion. Each sport has its own set of terminology, professional vocabulary, a set of slang words and phrases. Terminological nominations Phraseologisms have a minimal idea. Term compounds occur in the sports field must meet all established requirements. Here you can register: the accuracy of the value, the appearance of the system, brevity and linguistics. Sports terminology is based on figurative meaning or metaphor. You can, for example, read the term readings that are part of it, the figurative verb and the word form associated with it: go ahead, update records, equalize the score, give up service, give up the game, save the cup, take its place, strengthen the leader, hit the goal, and so on. Thermal compounds represent a separate group of terms with a deleted image semantics that includes metaphorical definitions. The words and phrases of a professional nature appeared on the basis of various hyphens: sticky defense, dry count, dry draw, new driving technique, strong play style, complex rally, glitter. All of these term combinations are highly specialized. The figurative metaphor in them is off because of its frequent use, and the regular repetition within it is a sports field. But with professionalism and jargon we can’t define them. Unlike jargon, sports language terms are very precise, excluding two-dimensional interpretation, are formed according to literary language norms, and are reproduced regularly. The sports dictionary is often supplemented with new external devices used in the literature. and sports journalism (see closed doors, ruthless sniper, etc.). For example, in the language of sports media, you might mention the following phrase: Fans playing with an orange ball is a real celebration. In the secret sports game basketball, “Game ball with orange under” is almost always played with orange ball. In the language of sports reporting, a paraphrase is used to avoid lexical repetition and



also performs a game function. In addition, in many sports, slang phrases form a large part of the lexical fund. Jargon is used as a means of sporting expression in both the production environment and the relevant environment of general interest. This means of expression is used not only by amateur athletes who love sports in their spare time, but also by fans, fans, and professional athletes themselves, where the sport is a profession. A good example of how difficult it is to draw a line in a sports dictionary is between people's activities related to hobbies and professional activities. Sports jargon is used and even disseminated by sports media (orally and in writing, in the press, popular magazines, radio and television in order to increase the authenticity and relevance of the message). Jargons are often used in comments and reports.

Conclusion. S jargon in sports journalism is a means of actualization, the frequent use of which leads to the unification of these expressions in the speech of a wide range of people. It should also be noted that from sports dictionary jargon is sometimes absorbed. In other areas of use (see referee, finish, etc.). Jargons for some modern sports, for example: (snowboarders, cyclists) enter everyday life and the main images are rooted in the language of youth (see helmet - "germak, pot, helmet"; motorcycle - "motas, motich, scooter, moto"; bicycle - "Mercedes pedal, bicycle race", loss - "steering wheel", biceps, arm - "bank"). A separate part of the sport terminology is the conditions under which the referee controls the race. The peculiarity of these characters is that they do not represent special concepts, but require voice commands to a specific action. Similar terms are found in a quick place to intervene and respond quickly. Competitive management conditions are typical for sports that pose a health risk to athletes: for example, martial arts, boxing, sambo, powerlifting, and more. So in boxing, the referee says "boxing!" Uses terms. ("the referee who ensures the beginning of the active combat action of the boxers in the team duel"), "out!" ("The referee's final order, after which the boxer is awarded a victory

References.

1. Piloyan R.A. Istoriografiya nauki o sporte // Teoriya i praktika fizicheskoy kultury. 2004. - № 7, - URL: <http://lib.sportdu.ru/press/tpfk/2004n7/pl7-18.Htm>. Guskova A.P., Sotin B.V. Popular Russian dictionary. Tolkovo-encyclopedic. - Moscow: Russkiy yazyk-Media, 2003.- p. 23-65.
2. Beis, K., Tsaklis, P., Pieter, W. and Abatzides, G. (2001) Taekwondo competition injuries in Greek young and adult athletes. *European Journal of Sports Traumatology and Related Research* 23, 130-136.
3. Dah C. and Djessou P. (1989) Casualties and injuries related to judo and karate during a competitive season (1986-1987) in Ivory Coast (in French). *Cinésiologie* 28, 153-157.
4. Gummerson, T. (2005) Coaching champions. Developing young sportspeople. A. & C. Black, London.
5. Kazemi, M. and Pieter, W. (2004) Injuries at a Canadian National Taekwondo Championships: a prospective study. *BMC Musculoskeletal Disorders*, 5:22. Available from URL: <http://www.biomedcentral.com/bmcmusculoskeletdisord/>.



KASALNI DAVOLAGANDAN UNING OLDINI OLGAN AFZAL

Madrahimova Zarinabonu Ma'murjon qizi
Andijon Davlat Universiteti Chet tillari falulteti ingliz
tili va adabiyoti yo'nalishi 3-bosqich talabasi

Anotatsiya: Ushbu maqolada yuqori intellektual salohiyatli, yuksak ma'naviy fazilatlariga ega bo'lgan, jahon andozalari talablariga javob bera oladigan mutaxassislar tayyorlash masalasi qo'yilgan.

Kalit so'zlar: intellektual salohiyatli, Oliy ta'lim, yuksak ma'naviyatli, ustoz shogird, yoshlar, ezgu fazilat

*Farzandlarimiz bizdan ko'ra
kuchli, bilimli, dono va albatta
baxtli bo'lishlari shart.
O'zbekiston Respublikasi
Birinchi prezidenti I.A.Karimov*

Raqobat tobora kuchayib borayotgan zamonda vatanimizni rivojlangan davlatlar qatoriga qo'shish uchun yuqori intellektual salohiyatli, yuksak ma'naviy fazilatlariga ega bo'lgan, jahon andozalari talablariga javob bera oladigan mutaxassislar tayyorlash oldimizda turgan muhim masalalardan biri hisoblanadi.

Yoshlar bugungi va ertangi kunimizning hal qiluvchi kuchidir. Davlatimiz va jamiyatimiz, har qaysi inson nimaniki oldimizga maqsad qilib qo'yamaylik, qanday buyuk ishlarni amalga oshirishga intilmaylik barcha harakatlarimizning negizida farzandlarimizni ham jismoniy, ham ma'naviy jihatdan sog'lom qilib o'stirish, ularning baxt-u saodatini, farovon kelajagini ko'rish, dunyoda hechkimdan kam bo'lmaydigan avlodni tarbiyalash orzusi turadi. Xalqimizning qonida tabiatida bo'lgan ezgu fazilatiga ko'ra odamlarimiz ko'proq o'zini emas balki, farzandlarini, ularning kelajagini, baxt-u saodatini o'ylab yashaydi. Ayniqsa hozirgi murakkab va tahlikali zamonda milliy o'zligimiz, azaliy qadriyatlarimizga yot va begona bo'lgan tuli xil hurujlar, yoshlarimizning ongi va qalbini egallashga qaratilgan g'arazli intilishlar kuchayib borayotgan zamonda farzanlarimizning ma'naviy olamini yuksaltirish, ularni bilimli, salohiyatli el-yurt ona vatan uvhun o'zini fido qilishga tayyor qilib tarbiyalash ota onalarimiz, o'qituvchilarimiz va xalqimizning oldida turgan muhim vazifa va burchlaridan biri hisoblanadi.

Yoshlarimiz ilm- fan sirlarini o'rganish bo'ladimi, zamonaviy kasb- hunarlarni egallash bo'ladimi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari internetdan foydalanish bo'ladimi barcha-barcha sohalarda yuksak cho'qqillarni egallamoqda. Bugun besh yoshli bola internetning u yog'idan kirib bu yog'idan chiqadiki ularni hayotini o'tgan hayot bilan solishtirib hayratda qoladi kishi. Bir so'z bilan aytganda, bugungi avlod juda tez o'sib bormoqda. Buni tan olishimiz va shunday yutuqlarga erishganimizdan faqat hursand bo'lishimiz kerak. Shunday ekan bugungi rivojlanayotgan zamonda yuksaklarni zabt etayotgan talabalarimiz oldida o'qituvchi va professorlarimiz ham o'z ustida kengroq ishlashlari zarur bo'lib bormoqda. Oliy ta'lim tizimida mustaqil ta'limga borgan sayin ko'p vaqt va ishonch bildirilmoqda. To'g'ri bu talabani erkin mustaqil, izlanishlar olib borishga undaydi. Ammo o'qituvchi va professorlarimizni ham shunday tizimlarni joriy qilish, zamonaviy axborot-texnologiyalaridan foydalanib darslarni yanada qiziqarli o'tkazish, ular o'rtasida doimiy tanlovlar o'tkazib borish bilan ularni ham "Daryo oqimida birga olib yurgan" bo'lar edi. Zero, suv oqmagan ariqda o't-o'lan o'sib suv yo'lini to'sib qo'yaveradi. Shunday ekan avvalo domlalarimizda ham bugungi rivojlanayotgan zamonda men ham o'z ustimda ko'proq ishlashim kerak degan fikr paydo bo'lishi kerak. Ammo afsuslanarlisi shundaki ular o'z ustida ishlash, kuchli bilimga ega talabalarni bilimiga yanada bilim berib rivojlantirish, yetuk mutaxassis qilib yetishtirish o'rniga ularni bor bilimlarini ham pasayib ketishi va bilimsizligiga ham sababchi bo'lib qolishmoqda. Barchamizga ayonki Oliy ta'lim dargohlariga o'qishga kirish istagida bo'lgan yoshlarimiz soni kundan-kunga ortib bormoqda. Bu maqsadlari yo'lida ular hattoki ba'zi bir maktab o'qituvchilaridan ham o'zib ketmoqda. Lekin o'qishga kirishgandan so'ng ularning bilimlari, bilim olishga bo'lgan ishtiyoqlari anchagina pasaymoqda. Ko'pchilik talabalarimizning abituriyentlik davrimda bilimim kuchli edi endi bo'lsa bilganlarimni ham unutib qo'yyabman degan gaplarini eshitib qolamiz. Ular o'rganishda davom etish, olgan bilimlarini



mustahkamlash o‘rniga bu holga kelib qolishlaridan achinarli hol bo‘lmasa kerak. To‘g‘ri inson bilim egallashni va uni boyitishni chindan istasa bunga o‘zi ham rag‘bat qila oladi. Lekin “Ustoz ko‘rmagan shogird har maqomga yo‘rg‘alar”-deganlaridek har bir yetuk shaxsni voyaga yetkazish va buyuk maqsadlar sari yo‘naltirishda inson uchun muhumi uni to‘g‘ri yo‘naltira olguvchi ustoz bo‘lmog‘i darkor. Muxtasar qilib aytganda hukumatimiz tomonidan yaratib berilayotgan sharoit va imkoniyatlarni o‘zigina bizlarni yuksaltirib qo‘ymaydi. Bu imkoniyatlardan unumli foydalangan holda biz yoshlarning yanada bilimga chanqoq bo‘lishimiz, o‘qish yo‘lida hormay tolmay astoydil mehnat qilishimiz, ustozlarimizning esa bizlarning bilim doiramizni kengaytirish uchun bor imkoniyat va mahoratlarini ishga solishlari har ikki tomonning ham mashaqqatli mehnat samarasi o‘laroq jonajon yurtimizning gullab yashnashida ushoqdekkina hissamizni qo‘shgan bo‘lsak ne ajab.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. I. A. Karimovning yuksak ma‘naviyat yengilmas-kuch asari
2. Www.lex.com internet sayti
3. Ziyonet.uz internet sayti




TIBBIYOTDA NANOTEKNOLOGIYADAN FOYDALANISH.

Marifjonov Karimjon Xasanboy o'g'li
Andijon davlat universiteti talabasi.
Telefon:+998999000794
marifjonovkarimjon@gmail.com

Anotasiya: Nanotexnologiya hozirgi kunda tibbiyotda muamo bo'lib kelyotgan jarohlik amaliyotlarni hozirgi kunga kelib nano zarralar yordamida ushbu muamolar yechilib kelmoqda.

Kalit so'zlar. Nanozarralar, nanorobotlar, nanojarohlik amaliyotlari, nanomeditsina.

Nanotexnologiya nafaqat ilmiy va texnik yutuqlardir. Ushbu fanning paydo bo'lishi dunyo haqidagi bilimlarning o'zgarishi va turli xil ilmiy fanlar va turli sohalarning o'zaro ta'sirida. Nanotexnologiya fan va texnologiyaning rivojlanishidagi fanlararo yo'nalishdir. Fizika, kimyo, biologiya, informatika fanlarini birlashtiradi va shubhasiz nanotexnologiya sohasida mavjud dunyoni o'zgartira oladigan juda ko'p ajoyib kashfiyotlar yaratilmoqda. Dunyo rivojlanarkan u bilan bir qatorda kasalliklar turi ham ko'payib bormoqda. Lekin ba'zi sanoqlik kasalliklar borki, ular insoniyatga juda kuchli ravishda xavf soladi va hatto insonni o'limigacha olib boradi. Bu kasalliklarni bir gap bilan davosi yo'q kasalliklar deb hisoblanadi. Bu kabi davosi topilmayotgan kasalliklarga OITS, Rak saratoni, Oq qon saratoni, gipatit C, jigar serozi, covid19 va boshqalar dunyodagi insoniyatga xavf solayotgan davosi yo'q kasalliklar hisoblanadi. Bularga qarshi dori darmonlar qo'llaniladi lekin u dori darmonlar kasallikni davosiga yetarlicha ta'sir qilmasdan faqatgina insoniyatni umrini uzaytirishga yordam berishga yordam berib kelmoqda. Tibbiyot sohasida nanotexnologiya yordamida hozir kunda katta ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Nanotexnologiyalar orqali ishlatiladigan nanorobot, yoki dorilarni kerakli joyga yetkazuvchi qurilmalar o'chami juda kichik bo'lgani uchun (10^{-9}) kichik o'lchamli hujayralarni davolasa ham bo'ladi [1,2] uning kichik nano o'lchami orqali nanorobot jarrox shikast yetgan hujayra nuqtasiga benuqson yetib boradi va shikast yetgan hujayrani o'sha yerda davolashga yordam beradi.



1-rasm. Nano o'lchami orqali nanorobot jarrox.

Davosi hali to'liq topilmagan oq qon saraton kasalligi davolashda nanotexnologiya sohasi yordamidan foydalanish bir qancha afzalliklarga olib keladi. Hozirda ishlatilayotgan an'anaviy usullarda oq qon kasalligi inson qon tanachasidagi lekasid qon tanachilarning ko'payib ketishi orqali oq qon kasalligi kelib chiqadi bu oq qon kasalligini barqaror ushlab turishi uchun qon tanachasidagi kamayib ketayotgan eriktrositni bir miqdorda turishi uchun insonga shu eriktrositni miqdorini oshiruvchi tabletkalar ichiladi. Bu usulda dori miqdorda qon tarkibiga yetarlicha yetib bormaydi. Nanotexnologiya orqali nanorobotlar esa eriktrosit miqdorini ko'paytiradigan tabletkani plafon orqali nanorobotlar kerakli joyiga yetarli miqdorda olib boradi. Bu esa dorining ta'sir miqdorini qon tanachasidagi shikast yetgan hujayrasigacha to'liq yetib borishini ta'minlaydi.

Nanotexnologiya asta-sekin hayotimizda tobora muhim o'rin egallamoqda, degan xulosaga kelishimiz mumkin. Bizning hayotimizga nanotexnologiyalarning kiritilishi unga katta yordam berishi mumkin va tibbiyot sohasida nanotexnologiyalarning rivojlanishi insoniyatning eng dahshatli kasalliklari, masalan, saraton kasalligiga qarshi kurashishga yordam beradi. Uzoq kelajakda nanomeditsinaning rivojlanishi hatto o'lmaslikka olib kelishi mumkin. Hozirda yaponiyalik bir qator olimlar o'lmas odam loyihasi asosida ishlar olib borishmoqda. Bu orqali



inson hujayralarini qayta tiklash, ishlash rejimini va umrini uzaytirish yo‘llarini izlashmoqda. Yaqin kelajakda nanotexnologiya yordamida ulkan ishlar bo‘lishi aniq bularga misol qilib aytadigan bo‘lsak oz o‘zini harakatlanadigan avtomobillar ya’ni gildirakni aylanishini to‘g‘ridan to‘g‘ri ko‘zda ko‘rinmaydigan usulda yani nano usulida harakatlanishi bluetooth orqali hech qanaqa boshqa richak aylantiruvchi vositalardan tashqari aylanadi. Sun’iy intellektga ega nanorobotlar odamning organizmidagi moddalar almashuvini kuzatib borishi mumkin bo‘ladi va kasallangan joyni aniqlab u yerga kerakli tibbiy yordam ko‘rsatishi mumkin. Nanotexnologiyaning qo‘llanilishi juda ko‘p va ushbu texnologiyalarni qo‘llash ko‘lami kundan-kunga o‘sib bormoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Teshaboyev A., Zaynobidinov S., Ismoilov Q., ErmatovSh, Abduazimov V. “Nanozarralar fizikasi, kimyosi va texnologiyalari” “KAMALAK-PRSS” nashriyoti. Toshkent 2014-yil. 368 b
2. Olimov L. “Nanofizika asoslari” “Yangi asr avlodi” nashriyoti. Toshkent 2014-yil. 140 b.
3. www.nanonewsnet.ru
4. www.nano.gov
5. www.ziyo.net



TAEKWANDO TARIXI

Mirjalilova Umrinisa Mirmaxmud qizi

O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti

taekwondo yo‘nalishi talabasi +998 99 877 50 97

Annotatsiya: Ushbu tezisda taekvondoning vujudga kelishi va ommaviy bo‘lib rivojlanishi borasida fikr va mulohazalar yuritilgan.

Kalit so‘zlar: Mahorat, xalqaro, musobaqa, yo‘nalish, harakat, vazifa, mashq, himoya vositasi.

Aslida har sohaning, har kasbning va sportning kelib chiqish tarixi mavjuddir. Jumladan, ushbu sportning ham o‘z kelib chiqish va tadbiri qilingan tarixi bor. Taekwondo (koreyscha: tae-oyoq, kvon-qo‘l, do-yo‘l, ya‘ni oyoq va qo‘llarining harakat yo‘li)- sport kurashi turi. Bunda erkak va ayollar belgilangan maydonchada o‘z vazn toifalarida (himoya vositalarida) yakkamayakka olinishi va maxsus mashqlarni bajarish mahoratini namoyish etish borasida yakka va jamoaviy tarzda oyoq qo‘llarda zarbalar berish yoki zarba harakatlarni qayd etish bo‘yicha musobaqalashadilar. Taekwondoda nusobaqalar 2 yo‘nalishda –Xalqaro taekwondo federatsiyasi (ITF, 1966y. tuzilgan, 140 dan ortiq mamlakat a‘zo) va Jahon taekwondo federatsiyasi (WTF, 1973 y. tuzilgan 140 dan ortiq mamlakat a‘zo) yo‘nalishlardan tashkil etiladi. Taekwondo aslikoreys xalqining kurash turi hisoblanadi. Miloddan avvalgi 600 yil ilgari koreyslar jang qilish va himoyalani vositasi sifatida uning usullarini qo‘llaganlar. Taekvondoning ITF yo‘nalishiga 1955 yil KXDRda asos solingann. Bu yo‘nalishda sportchilarning boshga tepishi, beldan pastga zarba berishi, umuman tananing ruhsat etilgan qismiga hamoyoq bilan to‘liq zarba berish ta‘qiqlangan. Shuningdek, qo‘l bilan ham kuchli zarba berishga ruhsat etilmaydi. Musobaqalar (5 ta vazn toifasida) 2 bo‘limda (har bo‘lim 2 minut. dan, tanaffus- 1 minut) davom etadi. Aniq zarbagalarga ochko beriladi. Maxsus mashqlarni bajarishga ma‘lum vaqt ajratiladi va ijro texnikasi baholanadi. O‘zbekistonda taekwondo (ITF) 1989 yildan ommaviylashadi. O‘sha yili O‘zbekistonda taekwondo (ITF) federatsiyasi tuzildi va ITFga qabul qilindi. Bu federatsiya 2000 yilda O‘zbekiston taekwondo (ITF) milliy assotsiatsiyasi nomi bilan qayta ro‘yhatdan o‘tdi Uning viloyatlarda bo‘limlari tuzilgan, 40 dan ziyod taekwondo (ITF) klublari faoliyat ko‘rsatadi. 200 dan ortiq murabbiy 50 mingdan ko‘proq. O‘zbekistonda taekwondo (ITF) musobaqalari muntazam o‘tkaziladi va O‘zbekistonlik sportchilar xalqaro musobaqalarda ham ishtirok etishadi. Po‘lat Usmonov, Valeriy Pak, Viktor Nikolayev va boshqalar taekwondo taekwondo (ITF)ning O‘zbekistondagi dastlabki targ‘ibotchilari bo‘lishgan. Endilikda ular yetakchiligida Botir Mamedov, Dimitriy Nim, Nasriddin Tolipov, Shahnoza Shuhratjonova, Alefina Kim, Moisey Nogay kabi o‘nlab sportchilar Osiyo va jahon chempionatlari, nufuzli musobaqalarda sovrindorlar qatoridan o‘rin olishdi. Taekwondo (WTF) federatsiyasiga asos solindi. Bu federatsiya 1992 yilda O‘zbekiston taekwondo (WTF) assotsiatsiyasi nomi bilan qayta ro‘yxatdan o‘tdi va 1993 yilda WTFga a‘zo bo‘ldi. Uning viloyatlarda bo‘limlar bor, 10 ta shahar taekwondo (WTF) kulubi tumanlardagi to‘garaklarida 200ga yaqin murabbiy 17 mingdan ziyod Taekvondochi bilan mashg‘ulot olib boriyapti. O‘zbekistonda taekwondo (WTF) musobaqalari muntazam o‘tkazilayapti va sportchilarimiz xalqaro musobaqalarda ham qatnashmoqda. Olek Pak, Adiki Li, Aleksey Kan va boshqa taekwondo (WTF) ning yurtimizdagi targ‘ibotchilari bo‘lishgan. Yevgeniy Xan, Eduard Xegey, Ravshan Toshpo‘latov, Umid Dadaxonov, Sanjar Mansurov, Natalya Mikryukova kabi sportchilar Osiyo va jahon chempionatlari, nufuzli musobaqalarda medallarni qo‘lga kiritishgan. O‘ylaymizki, kelgusida ushbu sport turi yanada rivojlanishda davom etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jahon Taekwondo Federatsiyasi (WTF)

2. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TAEKVON-DO ITF MILLIY ASSOTSIATSIYASI



INSON ORGANIZMDA JINSIY BEZLARNING AHAMIYATI

Murodullayev Xumoyun Izzatillo ugli
murodullayevxumoyun912@gmail.com
Samarqand Davlat Tibbiyot instituti
3-kurs studenti

Annotatsiya: Jinsiy bezlarning anatomik tuzilishi, bajaradigan vazifalari va funksiyalari. Jinsiy bezlarning ishlab chiqaradigan garmonlarning organizmdagi muhim ahamiyatlari. Jinsiy bezlarning nerv sistemasi tomonida boshqarilishi. Jinsiy kasalliklarni kelib chiqishida mikroorganizmlarning tasiri. Endometrit, prostatit kasalliklarni kelib chiqish sabablari.

Kalit so‘zlar: Jinsiy kasalliklar, endometrit, prostatit, nefrit, sistit, testesteron garmon, prostata bezi.

Jinsiy bezlar odam va umurtqali hayvonlarda eng eng muhim organ hisoblanadi. Jinsiy bezlarda faqat spermazoid yoki tuxum hujayra ishlab chiqarib qolmasda balki garmonlar ham ishlab chiqariladi. Anatomik jihatdan ular chanoq bo‘shlig‘da joylashadi. Erkaklarning jinsiy bezlari joylashishiga ko‘ra ikki guruhga bo‘linadi. Ichki va tashqi tanosil azolarga bo‘linadi. Ichki tanosil azolarga moyak, moyak ortig‘i, urug‘ pufagi, prostata bezi, ko‘per bezi, urug‘ tizimchasi kiradi. Tashqisiga esa yorg‘oq va erlik olatidan iborat. Bu azolarning o‘ziga xos xususiyati shundan iboratki, moyak 1 juft bo‘lib yorg‘ok ichida joylashgan. O‘ng moyak chapiga nisbatan biroz yuqorida joylashgan bo‘ladi, u endokrin (testesteron) va egzokrin (spermatazoid) bezkdir. Moyakning og‘irligi 25-30 gr., uzunligi esa 4-4.5 sm., kengligi 2.5-3 sm., qalinligi 2 sm. Prostata bezi mushak bezli azo bo‘lib, qovuqning tubida joylashgan. Prostata bezi 3 bo‘lak (o‘ng, chap va o‘rta) lardan iboratdir. Ahamiyatga ega bo‘lagi bu “O‘rta” bo‘lagi hisoblanadi, chunki bu toraygan qismi deyiladi. Bunga sabab shuki bu yerda 2 ta tuzilma joylashgan joylashgan. Ularning biridan spermatazoidni faollashtiradigan modda ishlab chiqariladi. Erkaklarning siydik kanalining uzunligi 16-23 sm. bo‘ladi.

Ayollar tanosil azolari: Bular xam joylashishiga ko‘ra 2 qismga bo‘linadi. Tashqi azolarga (katta va kichik uyatli lablar, kliter, qin dahlizi) lardan iborat. Ichkisiga

(tuxumdon, bachadon va bachadon nayi, qin). Tuxumdon chanoq bo‘shlig‘ining bachadon nayining ostida joylashgan bo‘lib u ham aralash bezdir. Endokirin (estrogenlar va progesteron) Egzokrin (tuxum hujayra ishlab chiqaradi), uning uzunligi=2.5 sm., og‘irligi=6-9 gr., kengligi=1.2-1.5 sm., qalinligi=0.8-1 sm. Ko‘ndalang kesganimizda 2 qavatdan (po‘stloq va magiz) iboratligini ko‘ramiz. Po‘stloq qavatida 2 xil follukula yetiladi, har 28-30 kunda 1 ta tuxum hujayra yetiladi. Bachadon kichik chanoq bo‘shlig‘ining o‘rta qismida joylashgan. Tug‘magan ayollarda uning og‘irligi 35-40 gr. shakli (oval yoki yumaloq). Tug‘gan ayollarda esa 75-85 gr. shakli (ko‘ndalang yoriq) bo‘ladi. Devori 3 qavatdan tuzilgan. Tashqi seroz (perimetri), o‘rta muskul (miometri), ichki (Endometrit)

Testesteron garmon: Erkaklar jinsiy bezlarida spermatogenez jarayoni ro‘y berdi va u yerda erkaklar jinsiy garmoni –androgenlar hosil bo‘ladi. Androgenlar interstitsial hujayralar - glandulotsitlarda ya‘ni Leyding hujayrasida hosil bo‘ladi. Androgenlar urug‘don massasini 18-21% ~larini tashkil etadi. Androgen buyrak usti bezining po‘stloq qismidan ham oz miqdorda ishlab chiqariladi. Androgen juda ko‘p steroid gormonlar kiradi ulardan asosiylaridan biri bu-testosterondir. Bu garmon qonga o‘tishi bilan erkaklarning birlamchi va ikkilamchi jinsiy belgilarni rivojlanishini taminlaydi.

Prostata bezi: chanoq bo‘shlig‘ining pastki sohasida joylashgan bezli a‘zo hisoblanadi. Prostata mushak, bez va biriktiruvchi to‘qimallardan tashkil topgan. Prostata shaklan yo‘g‘onrok, kashtan yong‘og‘iga o‘xshash a‘zodir. Prostata bezi orqa tomonida to‘g‘ri ichakning old tomoniga yopishib turadi. Uni ko‘rsatkich barmoq ya‘ni rektal uslubi orqali tekshirib ko‘riladi. Prostata bezi qadim davrlardayoq “erkakning ikkinchi yuragi” deyilgan. Bu a‘zo nasl apparati xamdir. Chunki bu a‘zo yallig‘langan spermatazoid hosil bo‘lishiga tasir ko‘rsatadi. Prostata bezining yallig‘lanishi prostatit deyiladi. Prostatit o‘tkir hamda surinkali turlarga bo‘linadi.

Foydalangan adabiyotlar

1. «Avitsenna.uz va mymedic.uz» Internit tarmoqlari.
2. «Анатомия человека» Сапин М.Р.
3. «Normal fizalogiya» Orlov.R.S Nozdrachyov.A.D.



ME'DA YALLIG'LANISHIDA EKZOGEN VA ENDOGEN OMILLAR
TA'SIRI ALKAGOL, DORI VOSITALAR, ZARARLI ODATLAR, NOTO'G'RI
OVQATLANISH, RUHIY HOLATLAR

Mustafayev Ma'ruf O'ktam o'g'li
Samarqand Davlat Tibbiyot instituti
Tibbiy prof fakulteti 5-kurs talabasi
uktamovmamor2710@gmail.com
+998900300724

Annotatsiya: Ushbu maqolada me'da zararlanishida zararli odatlarning roli,alkagol tamaki,dori vositalari ta'siri,ovqatni noto'g'ri iste'mol qilish yoritilgan.

Kalit so'zlar: Meda yallig'lanishi,gastrit turlari,alkagol ta'siri,gastritni klinik ko'rinishi,gastrit alomatlari,tashxis qo'yish,qo'shimcha kasalliklar,davolash.

Me'da inson organizmida ovqatni saqlash,hazm qilish xamda qon xosil bo'lishida ishtirok etuvchi temir almashinuvida va ovqat bilan tushgan mikroorganizmlarni o'ldirishda muxim rol o'ynaydi.Me'daning hajmi inson yoshiga nisbatan o'zgaradi.Oshqozon ichki tomondan maxsus shilliq parda bilan qoplangan xuddi boshqa ovqat hazm qilish a'zolari kabi.Oshqozon shilliq qavatining yallig'lanishiga-gastrit kasalligi deyiladi.Gastrit kasalligini aynan bitta faktor keltirib chiqarmaydi ya'ni gastrit kasalligi polietilogik kasallik xisoblanadi.Amalyotda gastrit kasalligini kechishiga ko'ra ikki xil turi farqlanadi.1.O'tkir gastrit. 2.Surunkali gastrit.Klinik kechishi:O'tkir gastritning klinik namoyon bo'lishi uning og'irlik darajasi va klinik kechishiga bog'liq.O'tkir ekzogen oddiy gastritda bemorlarda ko'ngil aynishi,shilliq va hazm bo'lmagan ovqatlar ba'zida o't bilan qayt qilish ,epigastral soxada ovqat hazm bo'lmaganlik hissi,qorinda og'riq og'izda noxush tam ,umumiy holsizlik,teri rangining oqarishi,tilni karash bilan qoplanishi ,ayrim og'ir kechishlarda qon bosimining pasayishi ,enterit belgilari kuzatiladi.Ko'pgina holatda kasallik 5-6 kun davom etadi.

Surunkali gastritning (atrofik bo'lmagan)aksaryat hollarda yoshlar orasida uchraydi va ko'proq og'riq,oshqozon to'lib ketish hissi,jig'ildon qaynashi ,nordon kekirish ,kamroq ko'ngil aynishi va qayt qilish bezovta qiladi.O'tkir gastritni kelib chiqishida ovqatlanish tartibining buzulishi,sho'r va nordon achchiq taomlarni ko'p iste'mol qilish ,ovqat tarkibida ziravorlar ko'p bo'lishi ,sifati iste'molga yaroqsiz taomlarni iste'mol qilish ko'z bilan ko'rganda achigan aynigan mog'orlagan,noxush xidli taomlarni iste'mol qilish ,ovqat tarkibida ziravorlar ko'p bo'lishi ,ovqat mevasabzavotlartarkibidako'pmiqdordasalmonellalarshigella,stafilakokk,toksikoinfeksiyalarning mavjudligi shuningdek allergiya chaqiradigan oziq ovqatlar tuxum ,ziravorlar ,meva sabzavotlar ,qulupnay va boshqalar hamda dori preparatlarini noto'g'ri pala-partish qabul qilish antibiotiklar ,kortikosteroidlarni,atsetilsalitsil kislotani muntazam qabul qilish doimiy alkogolizm ,chekish va doimiy stress xolati gastritlarni kelib chiqishida asosiy rol o'ynaydi.Xulosa o'rnida shuni aytilish joizki gastrit rivojlanishini oldini olish uchun o'z vaqtida doimiy rejim asosida ovqatlanish ,kechqurunlari yengil taom iste'mol qilish me'yoridan ko'p ovqat yemaslik ayniqsa kechki ovqatni,ovqat tarkibida achchiq sho'r va ziravorlarni me'yorida iste'mol qilish ,sifati iste'molga yaroqsiz maxsulotlarni ishlatmaslik,alkagol ayniqsa qo'l bola alkagolni iste'moldan cheklash,Chekishni bekor qilish chunki chekish avvaliga me'da shilliq qavatini qalinlashishiga keyin esa atrofiyasiga sababchi bo'ladi.Doimiy stress holatidan chiqish,stress holatida me'da ko'p miqdorda hazm shiralarini ishlab chiqaradi natijada ovqat tez hazm bo'lib me'da shirasi o'zining shilliq qavatini yemira boshlaydi,bemorlarga qattiq ovqatlarni kamroq iste'mol qilish ,ovqatni yaxshi chaynalgan holatda yutish kabilar shuningdek ovqat hazm qilish sistemasidagi boshqa muammolarni masalan surunkali xolesistit,surunkali pankreatit ,surunkali enterit ,kolit kabilarni o'z vaqtida bartaraf etish lozim.Bemorlardan(aholidan) yilda ikki marotaba terapevt ko'rigidan o'tib turish ham kasallikni oldini olishda yaxshi samara beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ichki kasalliklar.O' .SHarapov F.Gaffarova X.S.Axmedov, A.Gadayev,SH.Karimov
2. Patologik anatomiya.M.S.Abdullaxo'jayeva
3. Farmakologiya.S.S.Azizova



DEVELOPMENT OF PHARMACEUTICALS IN UZBEKISTAN

Samarkand State Medical Institute

Medical Rehabilitation, Sports Medicine and Traditional Medicine.

Student Nadjmitdinov Xusan Baxritdinovich

Annotation: Pharmaceuticals plays an important role in many areas of human life and government activities. This is one of the main areas of medicine. As we know, drugs are involved in all therapeutic and even surgical processes of treating a patient. This became especially noticeable during a pandemic when the whole world is going through a test and when medicines are becoming the last hope of a person

Key words: Pharmaceutical, development, Uzbekistan, drugs, medicines.

Methods of research: Scientific abstracts

Results of research: Pharmaceutical industry - a branch of industry associated with the research, development, mass production, market research and distribution of drugs primarily intended for the prevention, relief and treatment of diseases. Pharmaceutical companies can work with generics or original (branded) drugs. They are subject to a variety of laws and regulations regarding drug patenting, clinical and preclinical trials, and marketing of ready-to-sell products.

When Uzbekistan first gained its independence, there were only two pharmaceutical organizations, where only about twenty names of medicines were produced. Now the situation is completely different - there are 125 enterprises that annually produce both medicines and medical goods, and this is over 1750 items registered in the republic. All products have the required permits, which allow the use of drugs for medical purposes. It is worth noting that international ISO 9001 standards have been established at thirty enterprises of Uzbekistan specializing in the area of pharmaceuticals. There is also GMP, which is advised by the WHO. Twenty organizations specialize in the export of medicines and medical products - more than thirty countries of the world use goods produced in the republic.

Science in Uzbekistan does not stand still. Scientific institutes are engaged in the development of original pharmaceutical preparations based on raw materials of plant origin. So, over the past couple of decades, about thirty new drugs have been developed. Today, their production is fully established at leading enterprises. As for the rates of development, they are clearly demonstrated by the following statistics: in 2015, about 4,500 tons of plant raw materials for medicines were procured in Uzbekistan, and in 2016 the planned figure is more than 6,100 tons. Thus, the pharmaceutical industry of Uzbekistan continues its confident development, improving the quality of the sold drugs.

Special attention should be paid to the development trends of the pharmaceutical market, because these are the main changes that have been taking place in the pharmaceutical market recently. Global trends affect all countries, including the market in Uzbekistan. So the concept of development of the pharmaceutical industry of the Republic of Uzbekistan in 2020-2024 (hereinafter - the Concept) is aimed at organizing stable activities of the pharmaceutical industry, aimed at ensuring a high level of quality Improving the effectiveness of pharmacotherapy and prevention of diseases of the population.

Conclusion: As a conclusion, we can say that the reform of the pharmaceutical industry is designed to help ensure the country's drug safety, modernize the pharmaceutical sector, create new science-intensive and high-tech industries, growth in the export of pharmaceutical goods and services, stimulation of advanced scientific and technological developments and minimization of dependence on foreign markets.

Literature:

1. Conception of development pharmaceuticals in Uzbekistan (2019) president Mirziyoyev SH. M.

2. <https://gmpnews.ru/2020/01/farmrynok-uzbekistana-yavlyaetsya-odnim-iz-samyx-progres-sivnyx-sredi-stran-sng/>



РОЛЬ БЛОГОВ И БЛОГЕРОВ В СЕТИ ИНТЕРНЕТ

Акбаров Нурислом Ахтамжон ўғли
Студент 2 курса факультета промышленной фармации
Ташкентского фармацевтического института

Аннотация: В статье изложена история зарождения, развитие и популярность блогов в мире.

Ключевые слова: блог, блогеры, Интернет

На территории всей нашей планеты «водится» один очень интересный обитатель – блогер. Кто это – странно приспособившийся ко всем климатическим зонам зверь или бродяга-бездельник? На самом деле все очень просто.

В современном мире, одну из лидирующих позиций занимает – информационное пространство. Это публичная площадка в сети Интернет, где человек излагает свои мысли. Я, многие мои одноклассники, друзья, родственники и знакомые наблюдают за подобными публичными площадками и людьми, которые их ведут в различных социальных сетях. Исходя из этого, меня заинтересовал следующий вид информационного пространства – блог. Более близко я познакомилась с ним, когда участвовала в интернет – проекте в конкурсе «Читаем Крылова». На платформе этого блога мы с ребятами выкладывали свои проекты. Участвуя в этом проекте, мы стали юными блогерами. Здесь мы обсуждали видео, высказывания, которые понравились нам. Я заинтересовалась, откуда появились такие понятия «блог» и «блогер» и в чем их суть.

Термин «блог» произошел от английского weblog (loggingtheweb – «записывать события в сети»). Впервые его использовал американский программист Йорн Баргер в 1997 году для обозначения сетевого дневника. В 1999 году Питер Мерхольц в шутку расщепил термин weblog на web log. Эта шутка многим понравилась, и позже Эван Уильямс (один из создателей Blogger и Twitter) стал использовать только слова blog, blogger и blogging. Так и появилось слово «блог».

Блог — это личный дневник, который размещается в интернете, имеет яркую индивидуальность, оригинальное содержание и свою аудиторию. В отличие от реальных дневников, которые читают только сами авторы, записи интернет-дневников принято выкладывать на всеобщее обозрение.

Первым блогом считается страница Тима Бернерса – Ли, которую он начал вести с 1992 г., публикуя новости. Более широкое распространение блоги получили с 1996 г. В августе 1999 г. компьютерная компания Puga Labs из Сан-Франциско открыла сайт Blogger.com, который стал первой бесплатной блогерской службой. Людей, ведущих блог, называют блогерами. Блогер – это любой человек, который ведет собственный электронный дневник и является его администратором. Блоги делятся на 4 типа и каждый имеет свою цель: Личный блог – это Интернет-дневник. В таких блогах пишут о личных событиях. Чаще такие дневники ведутся для себя и друзей. Профессиональный блог – такие блоги ведут люди, которые профессионально занимаются какой-то деятельностью. Бренд блог – это блог, который используют для рекламы и продвижения бренда конкретного человека или целой компании. Новостной блог – такой блог ведут несколько авторов. Они выбирают тему и пишут новостные заметки по теме. Обычно на таком блоге появляются несколько записей в день. Смысл существования блога заключается в регулярных публикациях новых постов (от.англ. Vlogpost — «запись в блоге»). Читатели блога имеют возможность обсудить записи блога в комментариях, которые могут быть как положительными, так и отрицательными. Записи могут быть не только текстом, но и аудио- или видеороликами. Существует несколько типов блогеров: Бизнесмены – это блогеры, которые развивают свой электронный дневник для заработка денег. Описывающие свое хобби – это люди, которые увлекаются чем-либо, и делятся своими достижениями с окружающими. Знаменитости – это люди, которые создали блог лишь с одной целью – стать известным в интернете и привлечь к себе внимание огромного количества людей. Мне стало интересно, есть ли среди моих знакомых, родственников, знакомых моих родителей люди, ведущие свои блоги для определенных целей и развивающие свои блоги не только для своего окружения, но и для



более широкого круга подписчиков. Меня заинтересовали 3 блогера, ведущие свои блоги, основываясь на своих талантах и активной жизненной позиции. Я предложила им ответить на вопросы моей анкеты, они с удовольствием согласились. Проанализировав разговор с нашими знакомыми, я поняла, что вести блог – это очень трудная работа, но интересная, я выделила положительные и отрицательные стороны:

Меня очень заинтересовали рассказы наших знакомых о блогах, мне захотелось создать свой блог. В социальной сети Инстаграм, я открыла свой блог. Это электронный дневник, в котором при помощи видео и своих фотографий, я рассказываю об интересных событиях из моей жизни, а также о своем хобби. В наше время ведение блога является весьма интересным и прибыльным занятием. Блог – это творческий проект, который для многих еще является и коммерческим. Количество блогов с большим количеством подписчиков со всей планеты увеличивается с каждым днем, что позволяет интернет-пользователям знакомиться, заводить дружбу с новыми, интересными, талантливыми людьми, по возможности помогать людям, оказавшимся в трудной жизненной ситуации, развивать свой бизнес и объединить людей с общими интересами.

Литература:

1. Журналистика и литература на рубеже нового тысячелетия//21 век информация и общество//МГУ, 2000.
2. LiveJournal.com
3. <http://my.ya.ru>
4. <http://www.diary.ru/>



YUQORI SINIF O‘QUVCHILARINI ZAMONAVIY KASBLARGA YO‘NALTIRISH.

Odilov Sherzodbek Ibrohimjon o‘g‘li
Andijon davlat universiteti talabasi
Telefon:+998997926233 odilovsherzodbek55@gmail.com

Anotasiya:Hozirgi zamon rivojlantirish asrida yashar ekanmiz zamonaviy ta’limni rivojlantirish maqsadida yoshlarni zamonaviy texnologiyaga yo‘naltirish va raqobatbardosh kadr etib tayyorlash uchun maktab darsliklarida yuqori sinflar uchun dasturlashni yo‘lga qo‘yish kerak.

Kalit so‘zlar: Dasturlash tillari,web dasturlash tillari,IT,grafik dizayneri,pyhton.

Jamiyatdagi har bir inson munosib xulq-atvor, kasb-hunar va zarur bilim ko‘nikmalariga ega bo‘lishi shart. Busiz ko‘zlangan maqsadga erishib bo‘lmaydi. Rivojlangan mamlakatlarda shu jumladan taraqqiyot topib borayotgan mamlakatimizdaham malakali mutaxasislarga talab yuqori.

- Malakali mutaxasis kim?

Maxsus tayyorgallikdan o‘tgan va ma’lum bir faoliyat sohasida (huquq, tibbiyot, menejment, dasturlash va hokazo.) bilimlarga ega bo‘lgan shahs.

Bugungi kunda talab yuqori bo‘lgan kasblar ro‘yhtiga **IT**(Information Technology) va **Nanotexnologiya** kasblari kiradi, bir so‘z bilan aytganda kelajak kasblariga talab kundan-kun ortib bormoqda.

- Ularni qayerdan va qanday topiladi?

Buning eng yahshi va maqbul yechimi uyushgan va uyushmagan yoshlarni va maktabning yuqori sinf o‘quvchilarini zamonaviy kasblarga yo‘naltirishdan iboratdir. Natijada uyushmagan yoshlar va maktabning yuqori sinf o‘quvchilarini bandligini ta’minlashga erishiladi. Buning uchun maktab darsliklari qatoriga va maktabdan tashqari vaqtlarda yuqori sinf o‘quvchilari uchun kelajak kasblari darsliklarini joriy etish va o‘quvchilarga ta’lim berish kerak bo‘ladi.

Yuqorida aytib o‘tganimizdak IT va nanotexnologiya kasblari kelajak kasblari hisoblanadi. Birgina IT sohasini o‘zini oladigan bo‘lsak mamlakatimizda dasturlash va grafik dizaynerlik sohalari keng rivojlanmoqda. Maktab o‘quvchilari va uyushmagan yoshlarni ushbu sohalarga yo‘naltirish va ta’lim berish orqali kadrlar muammosini hal qilish mumkin. Ularga rivojlangan mamlakatlar va gigant IT kompaniyalar ishlatadigan eng ommabop dasturlar bo‘yicha ta’lim berish lozim.

Hozirgi kunda eng ommalashgan, grafik dizaynezlar va grafik montajchilar ishlatadigan dasturlar:

- Adobe Illustrator
- Adobe Photoshop
- 3D MAX, 3ds max
- Adobe PremiumPro

lar hisoblanadi. Dasturlash sohasini tanlagan o‘quvchilar uchun eng ommalashgan dasturlash va web dasturlash tillari quyidagilar:

Dasturlash tillari	Web dasturlash tillari
<ul style="list-style-type: none">• Python• Java• JavaScript• C++• C	<ul style="list-style-type: none">• PHP• HTML• CSS• MySQL• Pythonning Django kutubxonasi

misol bo‘la oladi.

Ushbu darslarni tashkillash uchun maktab binosidan alohida hona ajratish va zamonaviy kompyuterlar bilan jihozlab darslarni interaktiv o‘tish uslubini ishlab chiqish kerak bo‘ladi. Darslarni asosan guruhlariga ajratib o‘quvchi sonini 10-12 ta dan oshirmasdan o‘quvchining tanlagan yo‘nalishiga qarab guruhlar shakllantirish va grafik tartibda o‘tiladi.

Bu sohani rivojlantirish kelajakda mamalakatimizda raqamli iqtisodiyot hamda raqamli texnologiyalardan keng miqyosda foydalanishga xalqaro bozorda raqobatlasha oladigan mahsulot ishlab chiqarish imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati.

1. Ashurov M.O‘., Xaytullayeva N.S. “Dasturlash tillari”. Toshkent 2017-yil. 31 bet
2. Toshboyeva G.O‘. “Python dasturash tili va uning imkoniyatlari bo‘yicha uslubiy qo‘llanma”. Buxoro 2017 - yil. 69 bet
3. Erik Metiz “Изучаем Python”. Санкт-Петербург. Екатирибург.Воронеж. Нижние Новгород.Ростов-ра-Дону.Самара.Минск. 2020-год. 512 bet.
4. <https://esgroup.uz>



GRAVITATSIYAVIY SUV GIRDOBLI ELEKTROSTANTSIYA.

O‘rinboyev Jaxongir Azimjon o‘g‘li
Andijon davlat universitet talabasi
Telefon: +998941077551
jaxongir04111998@gmail.com

Anotatsiya: Ushbu ishda hozirgi kunda rivojlanib borayotgan qayta tiklanuvchi energiya manbalridan bo‘ yangicha turdagi elektrostansiya haqida ma’lumotlar berilgan. Hamda ilmiy izlanishlar orqali erishilayotgan natjalar yoritib berilgan.


Kalit so‘zlar: mineral moddalar, bioyoqilg‘i, gravitatsiyaviy suv girdob, havza.

Hozirgi kunda insoniyat oldida kelajak avlodlar uchun atrof-muhitni toza holda saqlab qolish muammosi turibdi. Hozirda asosiy ishlatilayotgan energiya manbalari quyidagi asosiy turlarga bo‘linadi.

1. Yoqilg‘i va mineral moddalar, jumladan neft, neft gazlari, torf, jigarrang ko‘mir.
2. Ikkinchi darajali energiya manbalari, shu jumladan sanoat korxonalarida yonuvchi va issiqlik chiqindilari, qattiq maishiy chiqindilar, siqilgan tabiiy gazning mehanik energiyasi.
3. Noan‘naviy va qayta tiklanadigan energiya manbalari, masalan, gidroenergetika, shamol energiyasi, quyosh energiyasi.
4. Bioyoqilg‘i.

Organik yoqilg‘ilardan foydalanib ishlab chiqariladigan energiya miqdorini kamaytirish hamda ekologik toza energiya ishlab chiqarish zarur. Shu sababli dunyo mamlakatlarida qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanib toza ekologik energiya ishlab chiqarishga qiziqish oshib bormoqda. Hozirgi kunda gidroelektrosiyalarning foydali ish koeffetsientini orttirish ustida ko‘plab izlanishlar olib borilmoqda. Bunday izlanishlar natijalaridan biri gravitatsiyaviy suv girdobli elektrostansiya haqida ma’lumotlarga e’tibor qaratsak.

Gravitatsiyaviy suv girdobli elektrostansiya - bu 0,7-3 metrli (2 fut 4 dyum - 9 fut 10 dyum) past gidravlik bosh yordamida harakatlanuvchi suyuqlikdagi energiyani aylanish energiyasiga aylantirishga qodir bo‘lgan mikrogidro girdobli turbinalar tizimining bir turi. Texnologiya markaziy drenajga ega dumaloq havzaga asoslangan. Drenaj ustida suv barqaror turg‘un girdobni hosil qiladi va u suv turbinasini boshqaradi.[1]



1-rasm. Gravitatsiyaviy suv girdobli gidrogenerator tuzilishi (a), ishlash sxemasi(b).

Uni birinchi marta 1996 yilda yunon-avstraliyalik advokat va ixtirochi Pol Kuris patentlagan [1], u girdobga xos kuchdan foydalanish yo‘lini izlagan. [Shubhali - muhokama]

Keyinchalik, avstriyalik ixtirochi Frants Zotlyoterer tashqi quvvat manbaisiz suvni shamollatish yo‘lini topishga urinayotganda xuddi shunday turbinani yaratdi. [2]

Suv to‘g‘ridan - to‘g‘ri kirish joyidan o‘tadi va keyin teginsel ravishda yumaloq havzaga o‘tadi. Suv havzaning markaziy pastki drenajidan katta girdob hosil qiladi. Turbina girdobdan aylanish energiyasini chiqarib oladi, u generator tomonidan elektr energiyasiga aylanadi.



Turbinaning energiyani konvertatsiya qilishning nazariy samaradorligi 85% gacha; sinov uskunasi 73% samaradorlik haqida xabar berdi va bir yil foydalangandan so‘ng uni o‘rnatish qiymati ishlab chiqarish quvvati uchun har bir vat uchun bir AQSh dollaridan kam bo‘ldi. [2]

Turbinaning suvni shamollatishi suv sharoitini yaxshilashga yordam beradi, turbinaning pasaytirilgan tezligi va gravitatsiyaning yetishmasligi baliqlarning ko‘p turlari turbinadan xavfsiz holda o‘tib ketishini ta‘minlaydi, bunga oddiy gidroenergetikalarda erishish ancha qiyin. Baliq ko‘chishi uchun qo‘shimcha tuzilmalarni talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar royxati.

1. Anjali Mohanan. “Power Generation with Simultaneous Aeration using a Gravity Vortex Trubune”. IJSER. Volume 7.
2. Mike Rycroft. “The gravitational vortex water turbine puts small hydro on the map”. EE publisher 23- aprel 2018- yil.



NAVOIY VILOYATIDA ETNOTURIZMNING SHAKILLANISHINING BA’ZI BIR JIHATLARI

Quralbaeva Arnagul Nurg‘ali qizi
Navoiy davlat pedagogika instituti talabasi
Telefon: +998942258929

Annotatsiya: Maqolada Navoiy viloyatining etnoturistik maskanlari haqida atroflicha yoritilgan. Shu bilan birga viloyatning turistik salohiyati haqida bayon qilingan. Shuningdek hududning milliy tarkibi ham tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: turizm, etnoturizm, ekoturizm, agroturizm, milliy tarkib.

Turizm insonlarning ehtiyojlaridan kelib chiqib, dam olishi, davolanishi, chiniqishi, o‘lkani o‘rganishga qaratilgan keng qamrovli madaniy jarayoni hisoblanadi. Etnoturizm esa xalqlarning kelib chiqishi, madaniyati, urf-odatlarini, an‘analari, marosimlarini o‘zida aks ettiruvchi tarmoqlardan biri hisoblanadi. Bunga binoan, respublikamizning barcha hududlari singari Navoi viloyatida ham keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 5-yanvardagi “Turizmni tezkor rivojlantirishga doir chora tadbirlar rejimi tog‘risida”gi Qarorida etnoturizmning hududiy xususiyatlariga alohida ahamiyat berilgan.

Navoiy viloyati milliy tarkibi xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Ushbu hududda 2019 yil ma‘lumotlariga ko‘ra o‘zbeklar 88,1%, qozoqlar 4,1 %, qoraqalpoqlar 2,3% va tojiklar 1,3%, ruslar 1,7 % qolgan milliy tarkibda 15 ga yaqin millat jamlangan. Bundan ko‘rinib turibdiki, qozoqlar, qoraqalpoqlar va tojiklarning urf-odatlarini, an‘analari hamda marosimlari o‘zbeklarga nisbatan o‘zgachaligi bilan farq qiladi. Shu sababdan ham viloyatning Konimex va Nurota tumanlarida etnoturizmni shakllantirish maqsadga muvofiq.

Navoiy viloyatining janubiy sharqiy qismida joylashgan tumanlardan biri bu Nurota tumani bo‘lib, u 1926 yil 26 sentabrda tashkil topgan. Tumanning maydoni 6,53 ming km², aholisi esa 93632 kishi hisoblanadi. Asosan bu tumanda o‘zbeklar, tojik, rus, tatar, va boshqa millat vakillari ham istiqomat qiladi. Nurota tumanida Sintob etnoqishlog‘i joylashgan bo‘lib bu qishloq o‘ziga xos tabiati va baland tog‘ tizmalari bilan tanilgan. Ushbu qadimiy qishloq qariyb 3 ming yillik tarixga ega. Ayni vaqtda bu yerda 545 oila istiqomat qiladi. Bugungi kunda Sintob qishlog‘i o‘ziga xos manzarali va tabiat mo‘jizalari bilan nafaqat mahalliy balki, xorijiy sayyohlarni ham hayratga solib kelmoqda. Bu manzilga aprel oyidan boshlab to noyabr oyining so‘ngigacha qadar Niderlandiya, Germaniya, AQSh kabi davlatlardan ko‘plab mehmonlar keladi. Ularning soni har yili ortib bormoqda. Ushbu hudud eko, agro va etnoturistik maskan hisoblanadi.

Sintob etnoqishlog‘ida joylashgan mevali daraxtlardan olingan hosil ekologik toza bo‘lib, shirinligi va yirikligi bilan hududlardagi mevalardan ajralib turadi. Mahalliy aholi asrlar davomida bag‘dorchilik bilan ham shug‘illangani bois atrofda ko‘plab buta va daraxtlarni, boy sun‘iy mevali o‘rmonlarni ko‘rish mumkin. Bu o‘ziga xos landshatning bir qismini yong‘oq, olma, tut, o‘rik, olcha, uzum, nok kabi mevali daraxtlar tashkil etadi.

Viloyatda yana shunday ya‘ni etnoturistik maskan borki, u Konimex tumani hisoblanadi. Uning milliy tarkibi turli xil bo‘lib 71,1 foiz aholi qozoq va qoraqalpoq millatiga tegishlidir. Tuman viloyatning shimoliy-g‘arbida joylashgan bo‘lib, 1965 yil 29-dekabrda tashkil topgan. Maydoni 9,25 ming km², aholisi esa 36028 kishidan iborat.

Bu tumandagi etnoturizmning ba‘zi jihatlari to‘xtalib o‘tamiz. Konimex tumanidagi “Sho‘rtepa” mahalla fuqoralar yig‘ini hududida tashkil etilgan turistik maskan nafaqat yurtdoshlarimiz, balki xorijlik sayyohlarni ham o‘ziga jalb qilmoqda. Bu maskanning maydoni 4.5 gektar bo‘lib, bu yerda 12 ta o‘tov, musiqali favvara, sun‘iy ko‘l, orolcha va mehmonlarga xizmat ko‘rsatish obyektlari joy olgan. Tumanning iqtisodiy salohiyatini va nufuzini oshirishga xizmat qiluvchi ushbu kompleksda sayyohlarni jalb etish maqsadida 100 ta tuya parvarishlanmoqda. Tarixdan ma‘lumki qozoq millati qadimdan tuya, yilqi, qo‘y echki boqishgan va tuya sutidan shifobaxsh davo sifatida foydalanishgan.

Bu markazda bir vaqtning o‘zida 3 mingdan ortiq mijozga xizmat ko‘rsatish imkoniyati mavjud. Bu turizm maskaniga qozoq millati haqida, ularning an‘analari haqida ma‘lumotga ega bo‘lish mumkin. Shuningdek o‘zbek, qozoq, qoraqalpoq milliy taomlari tayyorlanadi.



Mahalliy va xorijlik turistlar o‘zlari istagan baliqni tutib, pishirib, olishlari uchun o‘ziga xos orolcha tashkil etilgan. Musiqali favvora, bolalar atraksionlari, o‘ndan ortiq o‘tovlar, shifobaxsh tuya suti, sport maydonchasi, madaniy hordiq uchun amfiteatr xullas bu kabi zamonaviy qulay imkonyatlar tashrif buyuruvchilarda katta qiziqish uyg‘otishi tabiiy. Aytib o‘tganimizdek 12 ta o‘tov tashkil etilgan, qadimda qozoqlar otovlarda yasashagan va bu tashkil etilgan o‘tovlarda qozoqlar qanday, qay holatda yashashganini his qila olasiz.

Navoiy viloyatidagi etnoturizmning ba’zi bir jihatlarini Nurota tumanidagi Sintob qishlog‘i va Konimex tumanida yashovchi millat vakillarining madaniyati, urf-odatlari, an’analari, marosimlarini o‘zida aks ettirganini ko‘rishimiz mumkin.



ОДДИЙ КИЗИЛМИЯ НЕМАТОДАФАУНАСИНИНГ ТАКСОНОМИК ВА ЭКОЛОГИК ТАРКАЛИШ КОНУНЯТЛАРИ.

Раббимов Акмал Тулкин угли.
Самарқанд давлат тиббиёт институти талабиси.
Телефон +998997760971
Раббимов @mail.ru
Илмий рахбар Болтаев Комил
Телефон +998979071964

Аннотация: Тадқиқотнинг асосий мақсади Зарафшон тўқайзор биотоплари ўсимликлари нематодафаунасининг таксономик ва экологик тарқалиш қонуниятларини ўрганиш. Махсус касаллик қўзғатувчи турларнинг табиий манбаларини топиш ва уларнинг маданий ландшафтларга ўтишини олдини олиш. Тўқайзор ўсимликлари нематодафаунасининг мавсумий динамикасини ўрганишдан иборат эди.

Калит сўзлар: Нематода, Фауна, Нематодафауна, Биотоп, Мавсумий динамика, Экологик-трофик, Тур, Сапробионт, Микотроф, Девисапробионт, Политроф.

Оддий кизилмия илдизи ва илдиз атрофи тупроғида яшаётган фитонематодалар фаунасининг динамикасининг йил фаслларига қараб ўзгаришини ўрганиш учун Самарқанд вилояти Оқдарё тумани, Рофи Хамроев номидаги жамоа хўжалиги ҳудудида жойдашган тўқайзор биотопларидан намуналар олинди.

Намуналардаги лаборатория шароитида таҳлил қилиш натижасида 4 туркумга оид 62 тур (2488) нематода қайд қилинди. Булардан Tylenchida туркумига мансуб нематодалар баҳор фаслида 7 турга тегишли 235 та нематода қайд қилиниб, оддий кизилмия илдизи ва илдиз атрофи тупроғида учраган барча нематодаларнинг 32,7 % ташкил қилди. Ёзда бу туркумга оид нематодаларнинг турлари сони кўпайиб, II тага (242 та нематода), яъни 39,01% ҳосил қилди. Куз фаслида бу туркумга мансуб 3 тур (88 та нематода) қайд қилиниб, улар нематодалар комплексини 17,42% ташкил қилди. Қишда эса улар нисбатан кўпайиб, 6 турга оид 139 та нематода аниқланиб, кизилмия илдизи ва илдиз атрофи тупроғида учраган жами нематодаларнинг 39,4 % ташкил қилди. Бу юқори кўрсаткич асосан Aphelenchus avenae турининг кўп (105 та нематода) учраганлиги туфайли бўлди.

Rhabditida туркуми вакилларида баҳор фаслида 17 турга оид 395 та нематода аниқланиб, кизилмия илдизи ва илдиз атрофи тупроғида учраган барча нематодаларнинг 53,5 % ташкил қилди. Кузда эса 80,8%, қишда 55,9 % бўлди. Агаеолaimида туркумига мансуб нематодалар баҳор(0,5 %) фаслида ва ёз фаслларида қайд қилинди.

Dorylaimida туркумига мансуб нематодалар баҳор фаслида 11 турга оид 96 та нематода қайд қилиниб, нематодалар комплексининг 13,20 % ташкил қилди. Ёзда 13 турга оид 179 та нематода 19,9%, кузда 2 турга оид 9 та нематода 1,8%, қишда 3 турга оид 11 та нематодалар 4,8% ни ҳосил қилганлиги қайд қилинди.

Экологик-трофик гуруҳлар нисбатини таҳлил қиладиган бўлсак, улар ҳам бир-бирларидан фарқ қилар экан.

Ҳақиқий паразитлар экологик-трофик гуруҳига мансуб 3 турга оид 82 та нематодалар баҳор фаслида нематодалар комплексини (11,3 %) ҳосил қилди. Булар Heterodera glycyrrhizae, Pratylenchus pratensis, Ditylenchus dipsaci турларидир. Ёз фаслида ҳам 3 турга оид 99 та нематода (10,9%) қайд қилинган бўлса, кузда эса фақат 1 турга мансуб 37 та нематода (7,4%) аниқланди. Бу Heterodera glycyrrhizae туридир. Шунингдек, қиш фаслида 1 турга оид 13 та нематода ва Meloidogyne авлодига мансуб 1 та личинка қайд қилинди. Булар нематодалар комплексининг 3,9 % ташкил қилди. Потенциал паразитлардан баҳор фаслида 3 турга мансуб 38 та нематода(5,4 %) қайд қилинди. Булар Helicotylenchus buxophilus, Rotelenchus goodeyi тури аниқланиб, нематодалар комплексининг 0,2 % ташкил қилди. Қиш фаслида эса турлар сони яна 3 тага етиб, нематодалар сони 20 тага (5,7 %) етганлиги қайд қилинди.

Микотроф экологик-трофик гуруҳига мансуб фақат Aphelenchus avenae тури аниқланди. Баҳор фаслида бу турга мансуб 115 та нематода (15,81%) аниқланган бўлса, ёз фаслида эса 168 та (19, 46%) етгандиги маъдум бўлди. Шунингдек, куз фаслида бу турга оид 50



та (9,90 %), қишда 105 та (29,59%) нематода учраганлиги аниқланди.

Ҳақиқий сапробионт экологик-трофик гуруҳи вакиллари бошқа гуруҳларга нисбатан кўп миқдорда учради. Бу гуруҳга мансуб *Diploscapter*, *Mesorhabditis*, *Rhabditis* авлоди вакиллари қайд қилинди. Айниқса, *Mesorhabditis monhystera* тури жуда кўп миқдорда (762 та нематода) учради. Бунинг асосий сабаби оддий қизилмия ўсаётган жойда дарё суви оқизиб келган чириндиларга бой тупроқ бўлса керак. Ҳақиқий сапробионтлардан баҳор фаслида 4 турга оид 316 та нематода (43,4 %) қайд қилинди. Ёз фаслида эса 4 турга оид 109 та нематода (11,9%) қайд қилинди. Шунингдек, кузда 2 турга оид 334 та (66,1%) нематода, қишда 2 турга оид 50 та (14%) нематода аниқланди.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Адилова Н.Б. Сезонная динамика фауны нематод кукурузы и прикорневой почвы. // "Биол.и сельск.хоз.", вып.301, Ташкент, 1966. –С.33-41.

2. Кирьянова Э.С., Кралль Э.Л. Паразитические нематоды растений и меры борьбы с ними. // Изд. "Наука", 1971, Т. II, 332с

3. Нарбаев З.Н. Галловые нематоды в Каракалпакии. // "Защита растений", 1967.-N_12(I).-С.57.

4. Yokoo T.: Taxonomic studies of the genus *Pratylenchus* (Nematoda) found in Japan with some descriptions of ecology Agric. Bull. Saga Univ. 1968.-No14.-p.161-216(Japan. Mit engl. Zusammenf).



HOZIRGI DAVRDA IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNI O‘QITISHNING AHAMIYATI VA INTERFAOL USULLARI.

Rajabova Dilnoza Yarashovna
Buxoro Davlat Universiteti,
Tarix va madaniy meros fakulteti,
“Islom tarixi va manbashunosligi, falsafa”
kafedrasi o‘qituvchisi, Phd doktorant.

Annotatsiya: Hozirgi zamon ijtimoiy-gumanitar fanlar va ularning uslubiy muammolarini, xalqlar va davlatlar o‘rtasidagi ijtimoiy-siyosiy munosabatlarni manbalarga tayangan holda xolisona yoritish tarixiy taraqqiyot jarayoniga sivilizatsiya nuqtai nazaridan yondashish (ijtimoiy yondashuv) va ma’naviy-intelektual qiyosiy tahlil zaruriyatini uyg‘otadi. Ushbu maqolada shuning kabi jarayonlarda ilmiy yondashuvning ayrim mulohaza va takliflari yoritiladi.

Tayanch iboralar: zamonaviy dunyoqarash, o‘z-o‘zini o‘qitish ta’limi, tanqidiy tahlil, qiyosiy yondashuv, raqamli tarix, tasniflash, sistemalashtirish.

O‘zbekiston Respublikasining istiqbol yo‘li avlod-ajdodlarimizning tarixiy an‘analari va ma’naviy merosiga suyanan holda tanlab olinadi. Zotan, mustaqillik yo‘li O‘zbekiston xalqlarining tarixiy an‘analari va ma’naviy boyliklarini qayta tiklovchi, yangi mazmun bilan boyituvchi yo‘ldir. Bu esa tarix o‘qitishni milliy asosga qurishni, xalqimizning mehnatsevarlik, do‘stlik, mehmondo‘stlik, ma’rifatparvarlik kabi an‘analari, imon, insof, mehr-oqibat, andisha, or-nomus, Vatanga hamda xalqqa sadoqat kabi oliyjanob fazilatlarini chuqur o‘rganishni, ularni asrab-avaylab, yoshlar qalbiga, qon-qoniga singdirish, o‘zini anglashga ko‘maklashishi, respublikamiz istiqbol uchun astoydil xizmat qiladigan faollarni yetishtirishni asosiy vazifa qilib qo‘yadi.

O‘zbekiston xalqlari tarixi va madaniyatini o‘rganish o‘quvchilarni avlodlarimizning ko‘p ming yillik madaniy va ma’naviy merosi, ularni jahon ilmiy tafakkuri va madaniyati taraqqiyotiga qo‘shgan ulkan hissasi bilan tanishtirish, madaniyatimizning benazir allomalari nomlarini hurmat bilan tilga olish, ular bilan fahrlanishga, milliy iftixor tarbiyasini amalga oshirishga yordam beradi.

O‘zbekiston xalqlari tarixi o‘qituvchilarining milliy ongini o‘stirishda, o‘zlikni anglashida, ular siyosiy madaniyatini oshirishda, mustaqil respublikamizning ijtimoiy faol va ma’naviy barkamol kishilarni haqiqiy inson, vatanparvar qilib tarbiyalashda juda katta imkoniyatlarga egadir. Shunga qaramay, hozirga qadar bu imkoniyatlardan yetarli darajada foydalanmasdan kelindi. Shunday ekan, boshqa fanlar qatori ijtimoiy-gumanitar soha ham o‘zining alohida yondashuv asosida taraqqiy etishi lozimligini davr xususiyatiga ko‘ra taqozo etmoqda.

Zamonaviy dunyoqarashli, o‘z tarixiy shu‘uriga ega mustaqil fikrli yosh avlodga ijtimoiy-gumanitar fanlar alohida interaktiv tadrijiy metodlar orqali o‘tib borilishi lozimligini bugunki kun globallashuv jarayonlari yana bir bor namoyon etmoqda. Jumladan, oliy o‘quv yurtlarida ushbu o‘quv yilida sezilarli dars soatlari qisqartirilgan dinshunoslik, ma’naviyat asoslari, falsafa, madaniyatshunoslik, sotsiologiya kabi fanlarning asl mohiyatida kelajak avlodni globallashuv va diniy jarayonlar kabi ijtimoiy-ma’naviy o‘ta nozik jarayonlarda raqobatbardosh, mulohazakor hamda tanqidiy tahlilga ega yetuk kadrlarni tayyorlash yotadi. Davr shuni ko‘rsatdiki, maqsadga erishish uchun juda ko‘p vaqt ajratish kerak emas, ya’ni belgilangan qisqa vaqt ichida o‘qituvchi talabalarga kerakli motivni mohirlik bilan uyg‘ota olsa, izlanuvchan kadr adabiyotlar bazasidan o‘zi qiziqib mustaqil o‘zlashtiradi. Ushbu jarayon yosh avlodda mustaqil o‘z-o‘zini rivojlantirish (self-study) usulini ravnaq toptiribgina qolmay, bilim oluvchining tanqidiy-qiyosiy (critical thinking) dunyoqarashini ham o‘stiradi. Buning uchun o‘qituvchidan (ma’ruzachi) juda yaxshi o‘qitish mahorati va bilim talab etiladi. Ta’lim beruvchida fanga oid yaxshi tajriba, bilim oluvchida o‘rganish ko‘nikmasini tarbiyalash qobiliyati va interfaol usullardan o‘ziga xos texnika qo‘llash layoqati bo‘lmas ekan, fanga qiziqishni uyg‘otish oson bo‘lmaydi.

Gap shundaki, biz ko‘pincha «ta’lim mazmuni» bilan «o‘quv fani mazmuni» tushunchalarini bir xil deb qaraymiz. Aslida unday emas. Oldingi tushuncha kengroq, ya’ni o‘quv fani mazmuni faqat shu fanga oid bilimlarni — tushuncha, hukm, xulosalarni o‘z ichiga oladi. Ta’lim mazmuni esa, bundan tashqari, ilmiy bilish metodlari, usullari va amallari, ya’ni o‘quvchilarda mustaqil bilish malakalarini hosil qiluvchi metodologik bilimlarni (ta’rif, isbot, tahlil, sintez, induksiya,



deduktsiya, tasniflash, sistemalashtirish, umumlashtirish va boshqalarni) ham o‘z ichiga oladi. Bu borada ham pedagogikada zamonaviy yondashuvlar zarur.

O‘quvchilarda bilim olishga intilish va bilim olishga ehgiyoj bo‘lishi, o‘qish maqsadlari ichki zaruratga aylanishi kerak. O‘quvchi real hayotga kirib borishi, unda faol ishtirok etishi uchun bilim, ko‘nikma va malakalar bilan birga, ilmiy bilish metodlariga ega bo‘lish kerakligini ongli ravishda tushunib yetishi lozim. Chunki, ochiq jamiyatning asosiy belgisi — bu dunyoni anglab yetish va unda o‘zining munosib o‘rnini topishi uchun erkin izlanishdir.

Bundan tashqari, o‘quvchi manbalar bilan tanishish va ulardan foydalanish ko‘nikmasiga ega bo‘lmog‘i lozim. Chunki tarixiy hujjatlar o‘qituvchi bayonini aniqlashtiradi, mazmunini chuqurlashtiradi, unga aniqlik kiritadi, ishonarli va mazmunli bo‘lishini ta‘minlaydi, o‘quvchilarning bilish faoliyatini, fikrlashini faollashtiradi, bilimlari puxta va mustahkam bo‘lishiga yordam beradi, bilim olishning yangi usullari, ilmiy tadqiqotning tarkibiy qismlari bilan tanishtiradi.

Ma‘lumki, ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitish — o‘qitish va o‘rganishni tashkil etish jarayonidan iborat. An‘anaviy ustuvor metodlarning (reproduktiv, tushuntirish - ko‘rsatish, rivojlantiruvchi ta‘lim, muammoli ta‘lim, ijodiy; dasturli ta‘lim, dialogli, o‘yinli ta‘lim, o‘z-o‘zini o‘qitish ta‘limi, informatsion ta‘lim) zamonaviy rivojlangan ko‘rinishlari paydo bo‘lib bormoqda. Ulardan amalda oqilona foydalanish esa adaptatsion reproduktivlik (tadrijiy samaradorlik) stimulinii rivojlantiradi.

Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirgan holda, mavjud an‘anaviy tizimlarni yangilash yo‘nalishlari (munosabatlarni insonparvarlashtirish va demokratlashtirish asosida; bolalar faoliyatini faollashtirish va jadallashtirish asosida; tashkillashtirish va boshqarish samaradorligi asosida; o‘quv materiallarni metodik va didaktik rekonstruksiyalash asosida; tabiatan monandlik, muqobillik texnologiyalari; mualliflik maktabining yagona texnologiyasi) bo‘yicha ijtimoiy-gumanitar fanlarning ilmiy-bazaviy materiallarini moslashuvchan ob‘yekt sifatida qo‘llansa maqsadga muvofiq bo‘lardi degan taklif mavjud. An‘anaviy o‘qitish usullari asosidagi tarixiy fanlarning bugunki kun taqozosi bo‘lgan noan‘anaviy o‘qitish metodlari hisoblangan- “o‘qituvchi-texnolog”, “tarixiy informatika” hamda “raqamli tarix” (“digital humanity”) kabi usullar qo‘llanilgan elektronlashgan fan kurslariga o‘tkazilishi ham samarali bo‘ladi degan umiddamiz. Bunday maxsus onlayn kurslarni o‘qitishda, avvalo ijtimoiy-gumanitar soha vakillarining o‘zlarida ko‘nikmaning bo‘lishi maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

Zero, XXI asr fan va texnologiya shiddat bilan rivojlanayotgan davrda, o‘zligimiz, tariximiz, milliyligimiz va an‘analarimiz moderizatsiyalashib g‘laballashuv jarayoniga singib ketmasligi uchun mavjud manbalarni boricha zamonaviy tarzda yetkaza oladigan kadrlarni ham tarbiyalay olishimiz juda muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha xarakteristik strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son farmoni / Xalq so‘zi, 2017 yil 8 fevral.
2. Rajabov R. Tarix fanining metodologik asoslari. // o‘quv darslik. Samarqand, 2013y.
3. Rajabova D.Y. Socio-philosophical views of local historians on the period of Sayyid Abdulahadkhan the emir of Bukhara // International Journal of Psychosocial Rehabilitation 24 (10), 234-243.



MILLIY NAQQOSHLIKDA BUYUMLARGA BADIY ISHLOV BERISH TEXNIKASI

Raxmatova Laylo Ibodullayevna
Navoiy viloyati Navoiy shahar
Navoiy davlat pedagogika
instituti 1-kurs magistranti
Telefon: +998 93 433 70 32

Anotatsiya: ushbu maqolada milliy naqqoshlikda buyumlarga badiiy ishlov berish texnikasi haqida ma'lumotlar berilgan va bu texnika yog'och buyumlar misolida tushuntirilgan. Milliy naqqoshlikda usta-shogird an'analari asosida o'rgatishning o'ziga xos tomonlariga ham to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: buyumlarni naqshlash jarayoni, usta-shogird an'anasi, naqqoshlik maktablari.

Xalq amaliy bezak san'ati o'zining qadimiy va jozibadorligi bilan kishilar qalbidan joy olgan. Ayniqsa naqqoshlik san'ati an'alarga nihoyatda boy hisoblanadi. Naqqosh ustalarining ish uslublari rang-barang va serqirraligi bilan ajralib turadi. Naqqosh o'z ishida ranglarning tabiiy jilosidan, bejirim shakllaridan, material fakturasidan mohirlik bilan foydalanib, yorqin ifodalikka erishadi. Uy ro'zg'or buyumlari va jihozlariga badiiy ishlov berish asosan ularga naqsh namunalarini tushurish, pardozlash kishidan anchagina malaka va ko'nikmalarga ega bo'lishni talab etadi. Naqsh san'atida buyumlarga mohirlik bilan jilo bergan O.Qosimjonov, Yo.Raupov, J.Hakimov, T.To'xtaxo'jayevlarning xizmatlari alohida e'tirofga sazovordir.

Naqshlanadigan buyumlarning shakl-shamoyilini, foydalanishdagi qulayliklarini hisobga olgan holda boshlang'ich qoralama eskizlari ishlanadi. Hosil bo'lgan aniq o'lchamlardagi qoralamalar asosida buyum yasalib, naqsh kompozitsiyalari tuziladi. Buyumlarni naqshlash jarayonida bir necha amaliy bosqichlar bajarilishi lozim:

- tayyor bo'lgan (yasalgan) yog'och buyumlarga ishlov berish;
- yuza sirtlarini bo'r va yelim aralashmasi yordamida silliqlab chiqish;
- naqsh kompozitsiyasini buyum sathiga ulgi yordamida tushurish;
- naqshni ranglash bosqichlarini ketma-ket bajarish;
- pardozlash va laklash.

Naqshlanishi kerak bo'lgan buyumning rang koloriti aniqlangan, ranglash bosqichlari quyidagi tartibda bajariladi:

1. Naqsh zaminini ranglash.
2. Naqshning gullari va barglarini turlash.
3. Naqshning bandlariga, shakllariga rang berish.
4. Siyoh qalam tortish.
5. Naqshning gullari va barglariga targ'il tortish.

Yog'och buyumlarini naqshlashda mol, obi, siyoh qalam deb ataluvchi turli nomerlardagi yumshoq mo'yqalamlardan foydalaniladi. Pardozlash usullari naqshning rang koloritiga asosan qora, to'q ko'k, to'q yashil, jigarrang kabi to'qroq tusdagi bo'yoqlar yordamida bajariladi.

Yog'och buyumlarni naqshlash uchun quyidagi asbob-uskuna va materiallar kerak bo'ladi. Jilvir qog'oz, shpatel, bo'r, duradgorlik yelimi, pista ko'mir, doka, xitoy qog'ozi, igna, alif, lak, tilla va kumushdan tayyorlangan hallar, 1-20 nomerli mo'yqalamlar va boshqalar. Naqsh ishlash uchun qayin, qora qayin, qarag'ay, nok, yong'oq, DSP va boshqa yog'ochlar tanlanadi. Yog'och buyumlarini naqshlash uchun yana shpaklyovka, xoka va axta tayyorlanadi. Naqqoshlikda ishlatiladigan bo'yoq turlari quyidagilardan iborat: quruq bo'yoq, guash, akvkrel, emulsiyali bo'yoq, mineral bo'yoq, tempera bo'yoqlari. Yog'och buyumlarini naqshlashda eng ko'p qo'llaniladigan bo'yoq – guashdir.

Naqqoshlik texnologiyasi avlodan-avlodga o'tib kelgan. Qadimdan naqqoshlar naqsh yaratish sir-asrorlarini yozib qoldirmaganlar, faqat shogirdlari bilgan. Shogirdlari usta bo'lgandan so'ng ular ham o'z shogirdlariga o'rgatishgan. Shunday qilib, naqqoshlik kasbi an'ana tariqasida rivojlanib kelgan.



O‘zbekiston naqqoshlik maktablarini asosan Toshkent, Farg‘ona, Buxoro, Samarqand va Xiva maktablari tashkil etmoqda. Ushbu maktablarning texnik, uslubiy va kompozitsion tomonlarida ko‘pgina o‘xshashliklar bilan birga farqli tomonlari ham mavjud. Shu sababli naqqoshlik kompozitsiyalarida keng tarqalgan doira yoki aylana ko‘rinishidagi naqshin gullarni “pargoriy” deb nomlashadi. Bu uslub deyarli hamma ustalarning asarlarida uchraydi.

Xulosa qilib aytganda, xalqimizning asrlar bo‘yi qilgan ijodiy mehnati natijasida yaratilgan tarixiy yodgorliklar va boshqa amaliy san‘at namunalarini ko‘z qorachig‘idek saqlash, qadrlash va ulardan foydalanish hozirgi davrimizning eng muhim vazifalaridan biridir. Madaniy meros va yuksak badiiylik milliy an‘anani rivojlantirishga undan foydalanish, undagi ijodiy amaliyot uslublarini joriy etish, tabiiy xomashyolar bilan ishlash, kishilarda ayniqsa, yoshlarda qunt, chidam, qat‘iyat, xalq amaliy san‘atining qiziqarli o‘ziga xos turlariga daxldor etish maqsadga muvofiqdir.

Ta‘lim tizimida kasb-hunar kollejida o‘quvchi yoshlarni siyosiy-g‘oyaviy va estetik ruhda tarbiyalashda, go‘zallikni seza bilishga, san‘at asarlarini o‘rganishga, ulardan bahra olishga, izlanuvchanlik va yaratuvchanlik qobiliyatlarini oshirishga, amaliy san‘atga bo‘lgan qiziqishlarini kuchaytirish, kasb tanlash, ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Apuxtin O.K. Badiiy naqsh maktabi. – T.: O‘qituvchi, 1969.
2. Bulatov S.S. O‘zbek xalq amaliy bezak san‘ati. – T.: Mehnat, 1991.
3. Mirzaahmedov M.X. Materiallarga badiiy ishlov berish. – T.: O‘qituvchi, 1986.
4. Nabiyev M. Rangshunoslik va ranglar texnologiyasi. – T.: O‘qituvchi, 1995.
5. Qosimov Q. Naqqoshlik. – T.: O‘qituvchi, 1990.



MASOFAVIY TA'LIM, UNING ISTIQBOLLARI VA KAMCHILIKLARI

Samadov Alisher Shoislomovich
O‘zbekiston Davlat Jahon Tillari
Universiteti filologiya fakulteti
koryes tili nazariyasi va amaliyoti
kafedrasi koryes tili o‘qituvchisi
Tel: +998976333473
Email: samadov-alisher@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada hozirgi kundagi eng dolzarb bo‘lgan masala, ya’ni masofaviy ta’limning bugungi kundagi o‘rni, ahamiyati, qulayliklari, muammolari keltirilgan. Masofaviy ta’limning asosiy mezonlari, talaba va o‘qituvchi uchun ko‘rsatmalar, kerakli tushunchalar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Masofaviy ta’lim, internet, axborot texnologiyalari, pedagog, dastur.

Xozirgi kunda kompyuter va axborot texnologiyalari jadal suratlar bilan yangilanib, rivojlanish bilan birga kundalik turmushimizning asosiga aylanib qolmoqda. Jumladan, fan va texnikada, ishlab-chiqarish, bank tizimi va matlubot, radio-televidenie, maishiy xizmat ko‘rsatish, savdo-sotiq, xuquqni muhofaza qilish organlari, meditsina va eng asosiysi ta’lim tizimiga ham bosqichma-bosqich kirib kelmoqda.

Masofaviy talim va ularning o‘quv jarayonida qo‘llanish sabablari

Ta’lim tizimida o‘quv jarayonini yangidan isloh qilish, yangi informatsion texnologiyalarga asoslangan o‘qitish usullarini ishlab chiqish, ularni keng joriy qilish bugunning talabidir. Bunda masofaviy ta’lim tizimini joriy qilish maqsadga muvofiqdir. 90-yillarning boshlarida Internetning keng ommalashishi, ayniqsa WWW (World Wide Web-) tizimining joriy etilishi ta’lim tizimiga yangi «masofaviy ta’lim» yo‘nalishini olib kirdi. Masofaviy ta’lim (MT) - bu informatsion va kommunikatsion texnologiyalar - Dasturlar, elektron pochta, internet, video konferensiya, audio, video malumotlar va multimedia o‘quv qo‘llanmalariga asoslangan uzoqdan turib o‘qitish, o‘rgatish usulidir. Masofaviy ta’limda talabadan doimiy faoliyat – interaktiv o‘qitish talab etiladi. Bu esa mutaxassisning bilimi va qobiliyatini sifat xarakteristikasini oshiradi.

Masofaviy ta’limning bugungi ta’lim jarayonidagi o‘rni va ahamiyati

Masofaviy o‘qitish – o‘zaro ma’lum bir masofada Internet texnologiya yoki boshqa interaktiv usullar va barcha o‘quv jarayonlari komponentlari – maqsad, mazmun, metod, tashkiliy shakllar va o‘qitish usullariga asoslangan talaba va o‘qituvchi o‘rtasidagi munosabat. Masofaviy ta’lim - sirtqi talimning o‘z rivojlanish yo‘lidagi yangi kommunikatsion va informatsion texnologiyalarga tayangan, hamma formalari qonunlashtirilgan o‘qitishni amalga oshirishdir. Shuning uchun masofaviy ta’lim tizimini «XXI asr ta’limi» deb hisoblash mumkin. O‘zbekiston sharoitida Masofaviy o‘qitishni tashkil qilish katta samara beradi. Hozirgi davrda ta’limning bu turidan keng miqyosda foydalanish lozim. Mazkur ta’lim turini joriy qilish bilan bog‘liq ayrim muammolarning kelib chiqishi tabiiy. Lekin ularni imkoniyat darajasida hal qilishga erishish mumkin. Masalan, dastlabki paytda televideniya foydalanish katta samara berishi mumkin. Hozirgi kunda televideniye orqali ayrim fanlar bo‘yicha o‘quv mashg‘ulotlari tashkil qilinib kelinyapti. Lekin ko‘rsatuvlarning samaradorligi hali yetarli darajada emas. Birinchidan, bu ko‘rsatuvlar asosan kunduzi namoyish etiladi. Ikkinchidan, uning metodikasini yanada takomillashtirish kerak. Mazkur o‘quv mashg‘ulotlari bazasida Masofaviy o‘qitish tashkil qilinadigan bo‘lsa, u holda mazkur ta’lim turining tashkiliy — uslubiy tomonlarini qayta ko‘rib chiqish kerak bo‘ladi. Ayniqsa O‘zbekistonda bu yil masofaviy ta’lim tizimi anchagina isloh qilindi, ta’limda keng qo‘llanildi hamda qo‘llanilib kelinmoqda. Ba’zi Oliy ta’lim maskanlari butunlay online tizimga o‘tkazildi, hattoki maktablarda ham qo‘llanildi. Barcha ta’lim maskanlarida online ta’limning samarasi sezilarli darajada sezildi, va bu uchun barcha shart-sharoitlar yaratildi.

Masofaviy ta’limni qo‘llash usullari

Masofaviy talim tizimini joriy qilishda uchta yo‘nalishdagi muammo tug‘iladi:

- Texnik: Kompyuter va texnik qurilmalar bilan taminlash, aloqa kanallarini band qilish;
- Tashkilotchilik: Yuqori malakali boshqaruvchi, o‘qituvchilar, mutaxassislar bilan taminlash;
- Metodik: Ko‘rgazmali qurollar, maruza matni, multimedia, animatsiya, test malumotlar bilan



ta’minlash.

Masofaviy talimni qo‘llashning bir qator ustunlik va qulaylik tomonlari mavjud, jumladan:

- Mashg‘ulotlarni auditoriyada o‘tishi shart emas;
- Talabalarga mustaqil shug‘ullanishni o‘rgatadi;
- O‘qituvchilardan yuqori tayyorgarlikni talab qiladi;
- Talabalar amaliy va sifatli bilim olishlari mumkin;
- Talabalarining mustaqil fikrlash va qaror qabul qilish qobiliyati rivojlanadi;
- Talabalarda texnik qurilmalar bilan, kompyuter, Internet, turli dasturlardan foydalanish ko‘nikmasi rivojlanadi;
- Talimga ketadigan mablag‘ arzon. Ayniqsa kam taminlangan oilalardagi iqtidorli yoshlarning bilim olishiga yangi sharoit paydo bo‘ladi;
- Agar ta’lim olishga vaqti kam bo‘lsa yoki yashash joyidan uzoqda bo‘lsa, o‘zi uchun qulay vaqtda ishdan ajralmagan holda ta’lim olishi mumkin;
- Ta’lim olish chegara tanlamaydi, yani talabalar boshqa joylarda - viloyatda turib bilim olishi mumkin.

Ammo masofaviy ta’limda salbiy tomonlari ham borligi haqida aytish lozim. Ularga quyidagilarni kiritishimiz mumkin:

Elektron holatdagi ta’lim va muloqot jarayonlarga ishonchsizlik. Ushbu sababdan talabalar asosan virtual holatdagi ta’lim turida emas, balki oddiy (kunduzgi va sirtqi) ta’lim turlarida o‘qish istagida bo‘lishadi. Virtual muhit va texnika ta’minot bilan bog‘liqligi. Masofaviy ta’lim internet borligi, undan foydalanish narxi, tezligi va servislar mavjudligiga, maxsus kommunikatsion texnikalar mavjudligi va ular ishlashiga taalluqli.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: Sharq, 1998
- 2 O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuni. Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: 1998
3. www.edu.uz – Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi portali
4. www.ziyonet.uz – Axborot ta’lim portali



BOLALARGA INGILIZ TILINI O‘RGATISH METODIKASI.

Sattorova Shaxrobo Abdug‘affor qizi
Mustaqil tadqiqotchi.

Annotatsiya. Dunyo globalashuv jarayoni insonlardan o‘z ona tilidan tashqari yana bir necha xorijiy tillarni o‘rganishni taqozo qilmoqda. Hozirgi tadqiqotlar ushbu jarayonni erta yoshda boshlash samariliroq bo‘lishini ko‘rsatadi. Bizning yurtimizda ham ushbu masalaga qat‘iy e‘tibor qaratilgan, xorijiy tillarni o‘qitishda xususan ingliz tilini o‘qitishda dunyoning yetakchi tashkilot va universitetlar hamkorligida yangicha yondashuv asosida dasturlar ishlab chiqilmoqda.

Kalit so‘zlar: xorijiy til, erta yoshda til o‘rganish, ta‘limiy o‘yin, faoliyat, nozik vosita mahorati, ko‘z-qo‘l muvofiqlashuvi, faol ta‘lim turlari, ingliz tilida blok o‘ynash, rol o‘yinlar, qo‘l mehnati.

Oxirgi 3 yilda bu jarayon maktabgacha ta‘limda ayniqsa o‘z rivojini topmoqda. Bog‘cha va maktab yoshida o‘yin bolaning eng asosiy va sevimli mashg‘uloti bo‘lganligi tufali bola atrof olamni ham o‘yin orqali kashf etadi. Agar xorijiy tillarni ham o‘yinga qorishtirgan xolda o‘rgatilsa bu til ko‘nikmalarining o‘zlashtirilish samaradorligini bir necha barobarga oshiradi. O‘yin bolani nafaqat jismoniy faolligini oshiradi shuningdek ruhiy tetiklikni ham shakllantirishga yordam beradi. O‘yin bolani o‘ziga bo‘lgan ishonchini mustahkamlashiga, atrofdegilar bilan ijtimoiy munosabatlarni shakllantirishga ham katta ko‘mak beradi. Shu sababli ota –ona va tarbiyachi murabbiylar bolalarga imkon qadar ko‘proq o‘yin orqali o‘rganishni targ‘ib qilishlari kerak. Aynan o‘yin orqali bolalar ta‘lim oladilar va o‘z iqtidorlarini kashf etadilar. Bunga erishish uchun sezgi organlarini faollashtiruvchi muhitni, jumladan vizual, eshitish, kinestetik kabi faol ta‘lim turlaridan foydalanish maqsadga muvofiq xisoblanadi. Ta‘limiy o‘yinlar musiqa asboblarni chalish, qo‘shiqlar kuylash, she‘r aytish, raqsga tushish, o‘yin o‘ynash, videolar tomosha qilish, qo‘l mehnati vositasida turli narsalar yasashni o‘z ichiga oladi. Jamiyatda chet tiliga bo‘lgan talab, bir tomondan, shuningdek, ota-onalar tomonidan til nafaqat zamonaviy insonni tarbiyalashning omili, balki uning jamiyatdagi ijtimoiy va moddiy farovonligining asosi ekanligini tushunishi - boshqa tomondan chet tilini erta o‘rganishni ayniqsa mashhur va dolzarb qilish. Agar 20 yil oldin tilni bilish faqat ba‘zi sohalar ishlarida talab qilinadigan bo‘lsa, endi kamida bittasini o‘zlashtirish kerak edi xorijiy til zarur.

Chet tilini o‘qitishning asosiy muammosi talabaning yoshi. Ma‘lumki, bolalar o‘rganish uchun qulayroqdir. Yaqin vaqtgacha o‘qitish metodikasi bolalarga qaratilgan edi maktab yoshi, endi ota-onalar chet tilini o‘rganishni iloji boricha erta boshlashga intilmoqda. Maktabgacha yoshdagi bolalarni chet tiliga o‘rgatishning asosiy maqsadlari:

- bolalarda chet tilida boshlang‘ich muloqot qobiliyatlarini shakllantirish;
- o‘z maqsadlariga erishish, hayotiy aloqa sharoitida fikr va hissiyotlarini ifoda etish uchun chet tilidan foydalanish qobiliyati;
- chet tillarini yanada o‘rganishga ijobiy munosabat yaratish;
- boshqa mamlakatlar hayoti va madaniyatiga qiziqishni uyg‘otish.

Maktabgacha yoshi, ayniqsa, chet tilini o‘rganishni boshlash uchun juda qulaydir: bu yoshdagi bolalar til hodisalariga nisbatan sezgirligi bilan ajralib turadi, ular o‘zlarining nutq tajribalarini, tilning “sirlarini” tushunishga qiziqishadi. Ular kichik hajmni osongina va qat‘iy eslashadi til material va uni yaxshilab ko‘paytiring. Yoshi bilan bu qulay omillar kuchini yo‘qotadi.

Chet tilni o‘rganish uchun erta yosh afzalroq bo‘lishining yana bir sababi bor. Bola qancha yosh bo‘lsa, shuncha kamroq bo‘ladi so‘z boyligi yilda mahalliy til, ammo shu bilan birga uning nutqiga bo‘lgan ehtiyojlari ham kam: kichik bolada aloqa sohalarida katta yoshdagilarga qaraganda kamroq, u hali murakkab aloqa muammolarini hal qilishi shart emas. Bu shuni anglatadiki, u chet tilini o‘zlashtirganda, ona va chet tillaridagi imkoniyatlar orasidagi bunday katta farqni sezmaydi va uning muvaffaqiyat hissi kattaroq bolalarnikiga qaraganda yorqinroq bo‘ladi. Bolalarni o‘qitish - bu maktab o‘quvchilari va kattalarga qaraganda mutlaqo boshqacha uslubiy yondashuvni talab qiladigan juda qiyin masala. Agar kattalar chet tilida gaplashsa, bu uning boshqalarga o‘rgatishi mumkin degani emas. Uslubiy jihatdan nochor darslarga duch kelganda, bolalar uzoq vaqt davomida chet tilidan nafratlanishlari va o‘z qobiliyatlariga bo‘lgan ishonchlarini yo‘qotishlari mumkin. Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan faqat tajribali mutaxassislar ishlashi kerak.



Maktabgacha yoshda, ingliz tilini o‘qitishda, bolalar asta-sekin kommunikativ kompetentsiya asoslarini rivojlantiradilar, bu ingliz tilini o‘rganishning dastlabki bosqichida quyidagi jihatlarni o‘z ichiga oladi:

fonetik nuqtai nazardan to‘g‘ri takrorlash qobiliyati inglizcha so‘zlar o‘qituvchi, ona tili yoki ma‘ruzachining orqasida, ya‘ni eshitish diqqatini, fonetik eshitish va to‘g‘ri talaffuzni bosqichma-bosqich shakllantirish;

- inglizcha so‘z boyligini o‘zlashtirish, birlashtirish va faollashtirish;
- ma‘lum miqdordagi sodda grammatik tuzilmalarni o‘zlashtirish, izchil bayon tuzish.

Metodikato‘g‘ridan-to‘g‘ri ta‘lim tadbirlarini o‘tkazish bolalarning til qobiliyatlari tuzilishining yoshi va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda qilinishi va ularning rivojlanishiga yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak. Chet tilida muloqot motivatsiya va yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak. Bolada chet tiliga nisbatan ijobiy psixologik munosabatni yaratish kerak va bunday ijobiy motivatsiyani yaratish usuli o‘ynashdir. O‘yin - bu ham tashkil etish shakli, ham bolalar ma‘lum miqdorda to‘planadigan darslarni o‘tkazish usuli inglizcha so‘z boyligi, ko‘plab she‘rlar, qo‘shiqlar, qofiyalarni sanash va boshqalarni o‘rganing.

Darslarni o‘tkazishning ushbu shakli til ko‘nikmalarini va nutq qobiliyatlarini o‘zlashtirish uchun qulay sharoit yaratadi. O‘yin faoliyatiga ishonish qobiliyati chet tilida nutq uchun tabiiy turtki berishga, hatto eng oddiy iboralarni ham qiziqarli va mazmunli qilishga imkon beradi. Chet tilini o‘qitishda o‘ynash ta‘lim faoliyatiga zid emas, balki u bilan organik ravishda bog‘liqdir.

To‘g‘ridan-to‘g‘ri ta‘lim faoliyatidagi o‘yinlar epizodik va yakka bo‘lmasligi kerak. Tilni o‘rganish jarayonida boshqa tadbirlarni birlashtiradigan va birlashtiradigan uchidan uchigacha o‘yin texnikasi zarur. O‘yin metodikasi xayoliy vaziyatni yaratishga va bola yoki o‘qituvchi tomonidan ma‘lum bir rolni qabul qilishga asoslangan. Chet tilini o‘qitishning eng mashhur usullaridan biri bu **axborot-kommunikatsiya usullaridan foydalanish** kompyuter texnikasi, multimedia, audio va boshqalar kabi. To‘g‘ridan-to‘g‘ri ta‘lim faoliyatida audio, video hikoyalar, ertaklar, kognitiv materiallardan foydalanish ta‘limni individualizatsiya qilishga va maktabgacha yoshdagi bolalar nutq faoliyati uchun motivatsiyani rivojlantirishga yordam beradi. Aynan AKTni chet tilini to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta‘lim faoliyatida qo‘llash motivatsiyaning ikki turi rivojlanadi: o‘z-o‘zini rag‘batlantirish, tavsiya etilgan material o‘zi qiziq bo‘lsa va motivatsiya, bu maktabgacha yoshdagi bolada u o‘rganayotgan tilni tushunishi mumkinligi bilan namoyon bo‘ladi. Bu mamnuniyat keltiradi va o‘z kuchiga ishonchni kuchaytiradi va yanada takomillashtirishga intiladi. O‘quvchilar bu o‘yinni bir marta o‘ynaganlaridan keyin har safar yana o‘ynashlarini iltimos qiladigan bo‘lib qoladi! Yana bu o‘yin ortib qolgan daqiqalardan unumli foydalanish uchun ajoyib usul. Har bir o‘quvchingizga qog‘ozga 6ta ustun chizishlarini so‘rang. Siz kategoriya (so‘z uchun mavzu)ni oxirgi o‘tilgan mavzulardan tanlashingiz mumkin. Eng ko‘p qo‘llaniladigan kategoriyalar oziq-ovqat, ismlar, shaharlar yoki davlatlar, mebellar yoki jihozlar, ish harakat yoki kiyimlar hisoblanadi.

O‘quv dasturidan ko‘ra, ertak, hikoya yoki o‘quv filmlarini tinglash yoki tomosha qilish ancha qiziqroq. Bolalar juda tez tilning semantik asoslarini anglaydilar va o‘zlari gapira boshlaydilar. Agar o‘qitishda to‘liq immersiya usuli qo‘llanilsa. Ushbu usul bolaning chet tili bilan muntazam va chuqur aloqasini nazarda tutadi. Bolaning ong osti g‘ayrioddiy sezgir bo‘lib, hatto aniq natijalar hozir ko‘rinmasa ham, bir-ikki yil ichida bolaning g‘ayrioddiy rivojlangan lingvistik qobiliyatlariga duch kelish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Astafieva M.D. Ingliz tilini o‘rganayotgan bolalar uchun ta‘til. - M.: Mozaika-sintez, 2009 y.
2. Galskova N.D. Nikitenko Z.N. Chet tillarni o‘qitish nazariyasi va amaliyoti. boshlang‘ich maktab: uslubiy qo‘llanma.-M.: Airis-press, 2004.
3. Guseva L.P. Biz o‘ynaymiz, o‘qitamiz, o‘zlashtiramiz - biz ingliz tilini bilishni xohlaymiz. - Rostov n / a: Feniks, 2009 y.
4. Zemchenkova T.V. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun ingliz tili. - M.: VAKO, 2008 yil.



AVTOMOBILSOZLIKDA OYNALARNI ISITISH TIZIMINING TERMINALINI KAVSHARLASH UCHUN KOMPYUTERLI AVTOMATLASHTIRILGAN QURILMANI ISHLAB CHIQISH.

Sayitov Shavkatjon Samidin o‘g‘li
Fargona politexnika instituti assistenti
Telefon: +99890 5468281, +998993648281
Jeknil_91@mail.ru

Annotasiya. Ushbu maqolada avtomobillarning orqa oynasini isitish tizimining terminallarini Kavsharlash texnologiyasini o‘rganish natijalarini taqiy etiladi va terminalni Kavsharlash jarayoni uchun yangi ishlab chiqilgan texnologik qurilma tavsiflanadi.

Tayanch iboralar: Kavsharlash, terminal, jarayon, qizdirish, boshqarish, qurilma, rejim, yarim avtomat, texnologiya.

Аннотация. В данной работе приведены результаты исследования технологии пайки клемм терминала системы подогрева заднего стекла автомобилей и описывается новая разработанная технологическая конструкция для процесса пайки терминала.

Ключевые слова: пайка, терминал, процесс, нагрев, управления, оборудования, режим, полу автомат, технология.

Annotation. This paper presents the results of a study of the terminal soldering technology of the terminal of the rear window heating system of automobiles and describes a new developed technological design for the terminal soldering process.

Keywords: soldering, terminal, process, heating, control, equipment, mode, semi-automatic, technology.

Kirish. Rivojlangan mamlakatlarda ishlab chiqarish sanoati asosan texnologik jarayonlarni qay darajada avtomatlashtirilganligi bilan belgilanadi. Sohaning holati esa zamonaviy texnika va texnologiyalarni joriy etilishi darajasi asosida baholanadi. Jahon avtomobilsozligi yuqori texnologik uskunalar va texnologiyalarni qo‘llanishini talab etadi. Ayni paytda O‘zbekiston avtomobilsozlik sanoati mavjud bo‘lgan davlatlar ro‘yxatiga kiritilgan. O‘zbekiston Respublikasida ushbu tarmoq uchun xalqaro standartlarga javob beradigan butlovchi qismlar ishlab chiqaradigan bir qator ishlab chiqarish korxonalarini qurilib, ishga tushirildi. Bunday korhonalardan biri “AVTOOYNA” (Farg‘ona) korxonasi bo‘lid u avtomobil sanoatini tarkibiy qismlardan biri bo‘lgan avtomobil oynalarini ishlab chiqaruvchisi bo‘lib, u turli markadagi avtomobillarga mo‘ljallangan avtoullov oynalarini ishlab chiqaradi. “AVTOOYNA” korxonsida zamonaviy texnologik reglamentlar asosida oynalarni qayta ishlaydigan hozirgi zamon uskunalar o‘rnatilgan [1,2,3].

Avtomobil oynalari ikkita yupqa (qalinligi 1,9–3 mm) alohida qatlamdan va ular orasiga maxsus plyonka qo‘yib bir butin holatga keltiriladi. Tayorlash jarayonini “laminasiya” deb ataladi. Xar bir oyna aniq bir egilishli bolb, aniq texnologik karta bo‘yich tayorlanadi. Avtomobil oynasi uchun yuqorisifatli oynalardan foydalanikadi.

Tayyor avtomatik oynalarni ishlab chiqarish jarayoni ko‘plab qadamlar va operatsiyalardan iborat. Eng muhim bosqichlardan biri bu terminalni avtomobil oynalariga kavsharlash jarayonidir.

Bizning tadqiqotlarimiz va kuzatishlarimiz ushbu zavoddagi mavjud Kavsharlash texnologiyasining bir qator kamchiliklariga ega ekanligini ko‘rsatdi:

- Kavsharlash harorati va kavshirlagich kuchlanishi doimiy ravishda saqlanmaydi;
- sozlash va kavsharlash qo‘lda sinov orqali amalga oshiriladi;
- qalayning normal iste‘molini tanlashda noaniqliklarga yo‘l qo‘yiladi, bu esa terminalni kavsharlash sifatini pasayishiga olib keladi;
- Individual kavsharlash moslamasi yaratilmagan.

Ishning maqsadi. Terminalni avtomobilning oynalariga kavsharlash texnologiyasini tadqiq etish va oynaga kavsharlash texnologiyasini takomillashtirish bilan jarayonni yarim avtomatlashtirish uchun qurilmani ishlab chiqish [4].

Oyna ustida biror narsani kavsharlash murakkab jarayondir, chunki jarayon davomida kavshirlagich kuchlanishini 170-190 V oralig‘ida doimiy uslsb turishoykada lehimplash uchun lehimplash temirining kuchlanishini doimiy ravishda ushlab turish kerak. Oynaga katta kengaytirish koefitsienti bilan materialni lehimplash qiyin. Shuning uchun, maxsus yo‘rdachi material (pripyoy)



AGC # 500 kabi shisha taglikka mos keladigan yo'rdachi material tanlangan. Yo'rdachi material marcasiga qarab kavsharlash temperaturasi va kavsharlash vaqti tanlanadi[4].

Bizning tadqiqotlarimizga natijasida kavsharlash uchun optimal kavsharlashgichdagi temperaturasi va kavsharlash temperaturasi aniqlandi.

- kavsharlash joyi va kavsharlash yordamchi materiali temperaturasi $+40 - + 50C$ – oralikda bo'lishi mustaxkam kavshirni ta'minlaydi;


- harorat bu oralikdan ko'tarilganda yopishishni sekinlashtiradi va qotishma hosil bo'lib qoladi;

- Harorat juda past bo'lganda, kavshirlanish mustaxkamligi pasayadi va uzilishlar paydo bo'ladi.

Tadqiqotlar asosida kavsharlash jarayonini yarim avtomatlashtirish uchun maxsus kavsharlash qurilmasini (kavsharlash steplerini) yaratdik. U quydagilarni bajarish imkoniyatiga ega:

- Terminallarni avtomatik uzatish;
- Terminalni kavsharlash joyiga optimal bosimda ushlab turish;
- Kavsharlash jarayonida o'rnatilgan temperaturani ta'minlash;
- Kavsharlash vaqtini boshqarish.

Yarim avtomat kavsharlash qurilmasini boshqarish tizimi "arduino uno" mikrokontrolleri tashkil etib, unga zaruriy analog va diskret kirish chiqishli datchiklar ulangan:



1-rasm. Avtomobilsozlikda oynalarni isitish tizimining terminalini kavsharlash uchun kompyuterli avtomatlashtirilgan qurilmasining prinsipial sxemasi

Qurilmadan foydalanuvchi tashkil etilgan kiritish qurilmasi yordamida kerakli ma'lumotlarni kiritadi. Kiritilayotgan informasialarni displeyda kuzatib turadi. Kavsharlash algoritmi C++ dasturlash tili yordamida dasturlanib kontrollerga yuklangan.

Xulosa. Yaratilgan yarim avtomat kavsharlash qurilmasi kavsharlash jarayoni mexnat unimdorligini 1,5 barabarga ortirish bilan kavsharlash sifatini standartlar bo'yicha yaxshilaydi. Bundan tashqari kavsharlash yordamchi materiallarini tejash imkoniyatini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Технология электрической сварки металлов и сплавов плавлением./ Под ред. акад. Б.Е. Патона. - М.: Машиностроение. 2004.

2. Россошинский А.А. Прогрессивные методы в пайке. Киев. 1986.

3. Техническая документация ООО «Автоойна»

4. Сайитов Ш.С., Абдурахмонов С.М., Ощепкова Э.А., Рахмонов Д.Х., Хурибоева М.Ш. Новая конструкция для пайки терминала системы подогрева заднего стекла автомобиля. Актуальная наука. Международный научный журнал. 2019., № 9. 22-27.



TEATR –XALQ MA’NAVIYATINI VA INSON TAFAKKURINI YUKSALTIRUVCHI SAN’AT

Shodiyeva Gulhayo Abdurashid qizi
Buxoro davlat universiteti San’atshunoslik
fakulteti 2- bosqich talabasi.
Telefon : +998 (90) 513 51 34
Ilmiy rahbar: Ro‘ziyev Davron
Buxoro davlat universiteti katta
o‘qituvchisi, Pedagogika fanlari
nomzodi, Dotsent
Telefon: +99896119920

Anotatsiya: Teatr san’ati shakllangunga qadar juda olis va murakkab yo‘lni bosib o‘tgani ma’lum. Teatr voqelikni badiiy obrazlar vositasida aks ettiradigan o‘ziga xos san’at turi sifatida xalq hayoti va uning milliy tarixi, madaniyati bilan chambarchas bog‘lanib ketgan. U asrlar, yillar osha rivojlandi, sintetik san’at shaklida adabiyot, musiqa, raqs tasviriy san’atni mujassamlashtirdi va oxir oqibat insonning bebaho ma’naviy mulkiga aylandi.

Kalit so‘zlar: San’at, teatr, teatr tarixi, madaniyat, san’at fidoiylari, teatr taraqqiyoti, xalq va boshqalar.

Teatr san’ati turi qadimiy Yunonistonda paydo bo‘lgan. Buyuk dramaturglar Esxil, Sofokl, Evripid va boshqalar yetishib chiqdi va ilk teatr binolari shu yerda qurildi. Bu san’at turi yillar o‘tishi bilan Rimga va Rim orqali boshqa Yevropa malakatlariga kirib bordi. O‘rta Osiyoda qiziqchilar, askiyachilar, ko‘zbo‘ylog‘ichlar, dorbozlar – bularning barchasi xalq teatrini tashkil qilar edi.

V.G.Belinskiy aytganidek: “ Teatr – bu san’at qasri, muqaddas koshona, u ezgulik mehrobi. Shoshiling teatrga, teatrga boring, tabarruk ostonaga qadam qo‘ying. “

Teatr san’ati vaqt va o‘rin belgilariga ega. Spektaklda ko‘pgina san’at turlari qatnashadi. Undagi buyum –jihazlar muhiti, sahna bezaklari, kiyim kechak va nihoyat aktyorning o‘zi muayyan fazoli xususiyatga ega. Spektaklda vaqt mezoni ham muhim o‘rin tutadi. Sahna asari doimo biror- bir vaqt oralig‘ida sodir bo‘ladigan alohida harakatni namoyish etadi. Teatrning o‘rin, vaqt tomonlarini aktyor birlashtirib turadi. Aktyordan alohida iste’dod, xotira, ehtiros, tasavvur, ifoda etish mahorati talab etiladi. Aktyor mahorati teatr san’atining barcha shakllari uchun muhim xususiyatdir. Teatr san’atining boshqa qismlari aktyor ijodini yuzaga chiqarish uchun xizmat qiladi. Teatr so‘zi yunoncha “teatron“ so‘zidan olingan bo‘lib, qadimda yunonlar ommaviy tomoshalar bo‘ladigan joylarni “teatron“ deb ataganlar. O‘sha zamon yunon tomoshagohlari minglab odamlarni bag‘riga olar, ular ovoz eshinishi (akustika) qonunlariga rioya qilingan holda yirik shaharlar yaqinida qurilar edi. Teatrning bir qancha turlari mavjud. Masalan, drama teatri, qo‘g‘irchoq teatri, opera va balet teatri, musiqali drama teatri va bir aktyor teatri. Mutaxassislar fikricha, yurtimizda bu san’at turi qadim zamonlardan oq, aniqrog‘i, miloddan avvalgi birinchi ming yillik o‘rtalarida shakllana boshlagan va Sharqning boshqa teatrlari kabi milliy marosimlar, musiqa, taqlidiy o‘yinlar, xalq va qahramonlik tomoshalari, kulgu va pahlavon o‘yinlarida namoyon bo‘lgan. O‘tgan asrning boshlariga kelib esa qadriyatlar va an’analar asosida zamonaviy yangi o‘zbek teatriga asos solindi. Mamlakatimizda professional teatr truppalari shakllanishi va faoliyat yuritishi, Toshkent, Qo‘qon, Samarqand shaharlarining o‘zbek milliy teatri markazlariga aylanishida Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Abdulhamid Cho‘lponlarning beqiyos xizmatlarini e’tirof etish o‘rinlidir. Birinchi Prezidentimiz ta’kidlaganlaridek, “ Bizning milliy teatr san’atimiz tarixan juda katta davrni bosib o‘tgan bo‘lib, uning qadimiy ildizlari xalq o‘yinlari va tomoshalarga borib bog‘lanadi. Lekin XX –asrga kelib o‘zbek teatr san’ati yangitdan yurtimiz va jahon miqyosida shakllangan, davrlar sinovidan o‘tib kelayotgan an’ana va tajribalar asosida vujudga kelgani va kamol topganini e’tirof etish zarur. “ Darhaqiqat, teatr san’ati xalqning madaniy, ma’naviy taraqqiyotining uzviy qismi hisoblanadi. Teatr milliy qadriyatlar, urf- odatlar, bayram va marosimlarni avloddan –avlodga o‘tib, shakllanib, sayqallanib kelishi, xalqning tafakkurini teranlashtirishda ibrat maktabi vazifasini o‘taydi.” Qachonki milliy madaniyatimizning uzviy qismi bo‘lgan teatr san’ati xususida so‘z borar ekan, buyuk ma’rifatparvar Mahmudxo‘ja Behbudiyning “ Teatr – bu ibratxonadur “, deb aytgan



fikrini eslash o‘rinlidir“, deb yoziladi “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch“ asarida. Shuning uchun ham birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning “Teatr davri bilan hamnafas yashayotgan, hayot sinovlarida toblangan fidoiy insonlar haqida hikoya qiluvchi asarlarni sahnaga olib chiqishi zarur. Farzandlarimizning ma’naviy dunyosini mustahkamlaydigan, kelajakka ishonchini oshiradigan, oriyatini kuchaytiradigan zamonaviy qahramon obrazini yaratish kerak“, degan da’vatlariga javoban katta tajriba hamda yuqori darajali mahorat va salohiyatiga ega bo‘lgan teatr jamoasi xalqimizni mazmunan teran, badiiy yuksak, yangi – yangi asarlar bilan xursand etadi. Xulosa o‘rnida aytish kerakki, san’at insoniyatni faqat yaxshilik va ezgulikka chorlab qolmay yuksak maqsadlarni anglashda, o‘zlikni, ajdodlarimizni tanishda muhim o‘rin tutadi. har bir xalqning san’ati uning madaniyatini ochib berganidek, uning tafakkurini yuqorilarga ko‘taruvchi yulduzdir. Xuddi shuningdek, teatr san’ati ham necha asrlik san’at turi bo‘lishiga qaramay hamon o‘z yuksakligini yo‘qotgani yo‘q. Teatr – bu xalqni, millatni madaniyati va ma’naviyatini oshiruvchi yuksak san’atdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. E. Umarov, R. Karimov, M. Mirsaidova, G. Oyxo‘jayeva “Estetika asoslari“ Cho‘lpon nomidagi nashriyot –matbaa ijodiy uyi. Toshkent – 2007
2. “O‘zbekiston teatr san’ati: tarix, taraqqiyot va istiqbol“ G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot – matbaa ijodiy uyi. Toshkent -2014
3. M. Qodirov “Tomosha san’atlari o‘tmishda va bugun“. – Toshkent “ MUMTOZ SO‘Z “ -2011



BOSHLANG‘ICH SINFLARDA XORIJIY TILLARNI O‘QITISH MUAMMOLARI

Andijon davlat universiteti tarix fakulteti

arxivshunoslik yo‘nalishi 2-kurs talabasi

Sobirov Doniyorbek Murodjon o‘g‘li

TEL:+99899097532 E-mail:sobirovdoiniyorbek5@gmail.com

Annotatsiya. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi oldida turgan dolzarb vazifa har tomonlama kamol topgan sog‘lom, qobiliyatli, o‘z Vatani va xalqiga sodiq insonlarni tarbiyalash va ularni voyaga yetkazishdan iboratdir. Bu ulug‘ maqsadni ro‘yobga chiqarish xalq ta’limi tizimiga qarashli barcha xodimlar va keng o‘qituvchilar ommasidan o‘z ishiga ijodiy yondashish, har bir ishda yuksak samaradorlikka erishish xilma-xil metodik usullarni o‘ylab topish hamda uni maktab hayotiga tadbiiq etishni talab qiladi. Bugun maktablarda ta’lim olayotgan o‘quvchilar ilm-fan, texnika taraqqiyoti erishgan bir qator yutuqlardan bahramand bo‘lgan ma’lum darajada bilimli kishilardir.

Farzand dunyoga kelishi bilan ota-ona va qarindosh-urug‘lari kundan-kun o‘sib borayotgan yosh inson faoliyatida odamlarga xos har xil harakatlarni ko‘rgisi keladi va tez orada bu orzularining ro‘yobga chiqayotganligining guvohi bo‘ladi. Dastlabki davrlardan boshlab ona o‘z bolasining qo‘l-oyoq va gavda harakatlarini o‘yin sifatida shakllantiradi. Keyinchalik bolaning butun faoliyati o‘yin bilan bog‘liq bo‘ladi. Asta-sekin o‘yin yosh bola hayotining asosiy mashg‘ulotiga aylanadi. O‘yin bolani aqliy, axloqiy, jismoniy va estetik tarbiyalash vositalaridan biridir. Maktabga ilk qadam qo‘yayotgan kunda ota-onaning hayajoni birinchi sinfga chiqqan dilbandidan-da ko‘proq bo‘ladi. Farzandining jajji qo‘llaridan tutib maktabga yetaklayotgan kattalar ko‘nglining bir chetida bolajonim shu ta’lim dargohiga qanday ko‘nikarkan, darslarni o‘zlashtirishda qiynalmasman, degan hadik bo‘ladi. Bugun maktabga ilk bor qadam qo‘ygan o‘quvchining kechagi mashg‘uloti o‘yin edi. Bolada boshlang‘ich sinflarda o‘rganiladigan materiallarni o‘zlashtirib olishga yordam beradigan epcillik, hozirjavoblik, voqealarni bir-biriga taqqoslash, sinchkovlik kabi ijobiy xislatlarning shakllanish davri bo‘ladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga mo‘ljallangan bilimlarning o‘zlashtirib olinishiga erishish uchun ana shularga tayanish va uni parvarish qila borish lozim. Bu o‘rinda Samarqandlik pedagog A. Umarovning quyidagi fikrlari diqqatga sazovordir: “Tasavvur qiling, o‘quvchi ma’lum amaliy va ruhiy tayyorgarlikdan keyin maktab o‘quvchisi bo‘ladi. Uning vazifasi o‘zgaradi. Bir kecha- kunduzda o‘rtacha 4 soat ta’lim oladi. Kechagi o‘yinqaroq bola bugun 40-45 daqiqada davomida diqqatini bir joyga joylab... o‘qituvchi bilan muloqatda bo‘ladi. O‘quv axborotini qabul qiladi va idrok etadi. Ana shu vaqtda o‘qituvchi loqayd, mas’uliyatsizlik qilsa, uning bu holati ota-onalarning holati bilan hamohang bo‘lib qolsa, ota-ona ham yordam berishdan o‘jiz, nazorat qilishga “vaqti yo‘q” bo‘lsa, o‘sha o‘quvchilar bo‘sh o‘zlashtiruvchi, tartibsiz yomon o‘quvchilarga aylanadilar. O‘z kasbining mohir ustasi bo‘lgan fidokor o‘qituvchi ana shu paytda o‘quvchilarni qo‘lga oladi, ularning mehrini, ishonchini qozonadi: o‘quv mashg‘ulotlariga qiziqish uyg‘otadi¹.

Har bir xorijiy tili darslari xuddi zina kabi yuqoriga qarab qo‘yilgan qadam misoli bo‘lmog‘i o‘qituvchidan yangicha usul, ijodiy yondashuvni talab qilmoqda. Bugungi xorijiy til o‘qituvchisi zamon bilan hamnafas, taraqqiyot robitlaridan boxabar, olamda kechayotgan jarayonlar haqida o‘z fikriga ega shaxs bo‘lishi kerakligini davrning o‘zi taqozo etmoqda. Hozirgi kunda mamlakatda xorijiy tillarning o‘rganilishi ko‘p omillarga bog‘liqdir. Mamlakatning siyosiy, iqtisodiy, madaniy, ijtimoiy salohiyati va uning xalqaro miqyosdagi munosabatlari hamda hududiy va global tarmoqqa aloqadorlik darajasi xorijiy tillarni o‘qitish masalalariga hamda ularning o‘rganish ketma-ketlik tartibiga ham ta’sir etadi. Xorijiy tillarni o‘rganish jarayonida birinchi chet tili markazda umumta’lim maktablari boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun chet tillarni o‘rganish bo‘yicha turli qo‘llanmalar ishlab chiqish ishlari olib borilmoqda.

Mazkur qaror asosida ishlab chiqilgan yangi o‘quv rejaga ko‘ra, 1 – 4 sinflarga haftasiga ikki soatdan chet tili fani kiritildi va uni bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish belgilandi. Shu maqsadda yangi davlat ta’lim standartlari va o‘quv dasturlari asosida 1-sinflar uchun ingliz “Kid’s English”, nemis “Deutsch macht spab”, fransuz “Hirondelle” tillaridan darslik majmualari

¹ Umarova A. O‘yin musobaqa darsi // Boshlang‘ich ta’lim. 1992. 1-son, 48-bet.



yaratildi. Bu majmualar o‘quvchi kitobi, o‘qituvchi uchun metodik qo‘llanma va multimediali ilovalar (DVD diskdan) iborat. E’tiborli jihati shundaki, qo‘llanmalarni farzandlariga yordam berish bahonasida ota-onalar, buvijon-u buvajonlar ham o‘qishlari, jiddiyroq harakat qilishsa, o‘zlari ham o‘zlashtirishlari mumkin.

Boshlang‘ich ta’limda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish. O‘quv jarayoniga pedagogik texnologiyalar, dars o‘tishning noan’anaviy usullari, xususan, interfaol usul keng joriy etilayapti. Dars o‘tishning zamonaviy pedagogik uslublariga doir ko‘plab qo‘llanmalar mavjud. Xususan, “Chet tilidagi yangi so‘zlar qanday bayon qilinganda uning necha foizi o‘quvchi yodida saqlanadi, u tomonidan o‘zlashtiriladi?” degan tabiiy savolga javob topish maqsadida o‘tkazilgan tajribalar yakuni “xotirada saqlash” degan nomni oldi. Unga ko‘ra o‘quvchi yangi so‘zlar sonini:

- faqat eshitganda uning 10-20% i;
- eshitsa va so‘zlarga oid ko‘rsatmali materiallar bilan tanishsa, uning 30-50% i;
- eshitsa, yangi so‘zlar bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlar bajarsa, so‘zlarni tarjimalari bilan

o‘rtoqlariga aytib bersa, tushuntirsa, ular bilan mazkur so‘zlardan foydalangan holda muloqatda bo‘lsa, yangi so‘zlarning 60-90%i yodda qoladi, o‘zlashtiriladi. Binobarin, o‘qituvchi sinfga kirib o‘quvchiga faqat ma’ruza o‘qib chiqib ketishining foydasi kam bo‘ladi. O‘quvchi har bir o‘rgangan mavzusi yuzasidan o‘rtoqlari, o‘qituvchisi bilan o‘zi muloqotga kirishishi, dars davomida olgan bilimlarni gapirib bera olishi kerak. Ana shunda olingan bilim mustahkam bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullayeva Q., Nazarov K., Yo‘ldosheva Sh. Savod o‘rgatish. T. “O‘qituvchi” 1996 y.
2. Mardonova. Boshlang‘ich sinflarda ta’lim-tarbiyani takomillashtirish. “Sharq”-1998.



NANOTEKNOLOGIYALARNING HAYOTIMIZDAGI AHAMIYATI.

Soliyev Abdullajon Abdulaziz o‘g‘li
Andijon davlat universiteti
Telefon: +998934156761
Soliyevabdullajon3@gmail.com

Anotatsiya; Quyidagi maqolada hozirgi kunda rivojlanib borayotgan nanotexnologiya yo‘nalishining hayotimizda tutgan o‘rni haqida ma’lumotlar yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: nanotexnologiya, kibernetika, nanopartikul, antibakteriya, elektronika.

Hozirgi kunga kelib nanotexnologiya ilmiy tadqiqotlar sohasida juda faol yo‘nalishlardan biri bo‘lib kelmoqda. Sun‘iy ravishda yaratilgan nano-ob‘ektlar tadqiqotchilarni doimiy ravishda o‘z xususiyatlari bilan ajablantiradi va ularni qo‘llashda kutilmagan istiqbollarni va‘da qiladi. Va nanoproduksiya insonning jismoniy va ma‘naviy holatiga kuchli ta‘sir qiladi. Hozirgi kunga kelib nanotexnologiya sohasidagi yangiliklar deyarli har qanday sohada: tibbiyot, mashinasozlik, gerontologiya, sanoat, qishloq xo‘jaligi, biologiya, kibernetika, elektronika va ekologiyada qo‘llaniladi. Nanotexnologiya yordamida kosmosni o‘rganish, moyni tozalash, ko‘plab viruslarni yo‘q qilish, robotlarni yaratish, tabiatni himoya qilish, ultrafast kompyuterlarni yaratish mumkin. Nanotexnologiyaning rivojlanishi insoniyat hayotini yozishni, bug‘dvigatelini yoki elektrni rivojlantirishdan ko‘ra ko‘proq o‘zgartiradi. Nanoworld murakkab va hali ham ozgina o‘rganilgan, ammo bizdan bir necha yil avvalgidek unchalik uzoq emas. Ingliz tilidan tarjima qilinganda Nanotexnologiya - bu atomar tuzilishli mahsulotlarning moddada atom va molekularini berilgan tartibda joylashtirish yo‘li bilan ishlab chiqarish usullari yig‘indisidir. «Nano» so‘zi juda kichik mikrozarralar ma‘nosini bildiradi.

Agar nanotexnologiya kabi tushuncha hozirgi kunda inson faoliyatining ko‘plab muhim sohalarida qo‘llanilishi tufayli tobora ommalashib bormoqda bo‘lsa, bunday atama deyarli hech kim hali bilmaydi. Biroq, ushbu sohada nanotexnologiya juda talabga ega. So‘nggi yillarda Yer populyatsiyasining uzluksiz o‘sishi va iste‘molning ko‘payishi global miqyosdagi eng jiddiy muammolardan biriga aylanganligini hisobga olsak. Chorvachilikda ishlatiladigan parhez qo‘shimchalarining muhim qismi hayvonlar tomonidan so‘rib olinmasligini bilarmidingiz? Va bu yerda, kosmetikada bo‘lgani kabi, nanotexnologiya ham yordamga keladi - diametri bir necha o‘nlab nanometrda teng biologik faol qo‘shimchalar va vitaminlar tanada suvda yoki suyuq ovqatda eritilgandan ko‘ra yaxshiroq so‘riladi. Vitaminlar va parhez qo‘shimchalari yaxshiroq so‘rilganligi sababli, mushaklarning o‘sishi tezroq bo‘ladi va go‘sht odatdagidan ancha oldinroq do‘kon javonlariga keladi.

Katta oziq-ovqat kompaniyalarida qadoqlash texnologiyalari katta qiziqish uyg‘otmoqda, xususan, antibakterial qoplama sifatida ishlatiladigan kumush nanopartikullar keng qo‘llaniladi. Nanotexnologiya, shuningdek, oziq-ovqat sanoati ishchilariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ishlab chiqarish jarayonida mahsulotlar sifati va xavfsizligini har tomonlama kuzatib borish uchun noyob imkoniyatlarni beradi, real vaqtda. Biz turli xil nanosensordlardan foydalangan holda, mahsulotdagi mayda kimyoviy ifloslantiruvchi moddalarni yoki xavfli biologik moddalarni tez va ishonchli aniqlashga qodir bo‘lgan diagnostika mashinalari haqida gapirayapmiz. Ammo olimlarning ushbu texnologiyalarni oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishda qo‘llash bo‘yicha rejalari juda shuhratparast. Ularning fermer xo‘jaliklarida (don, sabzavot, o‘simlik va hayvonlarni yetishtirishda) va oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishda (qayta ishlash va qadoqlash paytida) ishlatilishi butunlay yangi mahsulot turini paydo bo‘lishiga olib keladi, natijada ular genetik modifikatsiyalangan oziq-ovqat mahsulotlarini bozordan olib tashlaydi. Bu sodir bo‘ladimi yoki yo‘qmi - yaqin kelajak masalasi. Shunday ekan nanotexnologiyalar hayotimizning ajralmas bir bo‘lagiga aylanib borayotgan ekan. Biz ham shunga ko‘nikib borishimiz va o‘rganishimiz zarur, bu o‘zimiz uchun ham foydali.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Teshaboyev A., Zaynobidinov S., Ismoilov Q., Ermatov Shu., Abduazimov V. «Nanozarralar fizikasi, kimyosi va texnologiyalari» «KAMALAK-PRSS» nashriyoti. Toshkent 2014-yil. 368 b
2. Olimov L. «Nanofizika asoslari» «Yangi asr avlodi» nashriyoti. Toshkent 2014-yil. 140 b.
3. www.nanonewsnet.ru



TA'LIM TIZIMIDA NANOTEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH.

Tursunov Shoxzodbek Ulug'bek o'g'li
Andijon Davlat Universituti talabasi
Telefon:+998936907621
Shahzodbek8758@gmail.com

Anotasiya:Laboratoriya mashg'ulotlarini rivojlantirish uchun nanotexnologiyani fanga joriy qilish kerak bu degani nanozarralardan tashkil topgan kvant kompyuterlaridan foydalanish kerak.

Kalit so'zlar:Nanotexnologiya, kvant kompyuterlar, laboratoriya.

Insonlar atomlarni boshqarish yo'li bilan oddiy ko'zga ilinmaydigan asbob-uskunalar yaratishni o'rganib oldilar. O'z ichiga fizika, kimyo, hamda biologiya fanlarining yutuqlarini qamrab oladigan nanotexnologiya hayotimizga kirib kelmoqda. Bugungi kunda nanotexnologiya zamonaviy texnologiyalarda inqilobiy o'zgarishlarni amalga oshiradigan fan va texnikaning yetakchi yo'nalishlaridan biridir. Rivojlanayotgan nanotexnika va nanotexnologiya sohasi kun sayin tobora ommalashib bormoqda. Nanotexnologiyalar termini orqali nanometr o'lchamli materiallar, qurilmalar, sistemalarni yaratish va foydalanishni tushuniladi. Nanotexnologiyalar atom va molekulyar masshtabdagi ob'ektlar bilan ishlashga imkon beradilar. Nanotexnologiya chindan ham fanlararo; hayotimizning barcha jabhalarida qo'llash uchun yangi materiallar, nanomashinalar va nanotexnikalarni loyihalashtirish va yaratish uchun alohida atomlar va molekularni boshqarishni o'z ichiga oladi. Nanotexnologiya - bu nazariy asoslash, tadqiqot, tahlil qilish va sintez qilishning amaliy usullari to'plami, shuningdek alohida atom va molekularni boshqariladigan manipulyatsiyasi yordamida ma'lum atom tuzilishiga ega mahsulotlarni ishlab chiqarish va ulardan foydalanish usullari bilan shug'ullanadigan fundamental va amaliy fan va texnika sohasi. «Nano» qo'shimchasi metrning milliarddan (10⁹) bir bo'lagini anglatadi[1]. Shunday ekan nanometrik o'lchamdagi qurilmani nafaqat ko'z bilan ko'rib, balki ularda yuz beradigan fizik jarayonlarni tasavvur qilib bo'lmaydi. Bundan tashqari, nanoo'lchamli qurilmalarni yaratish juda murakkab texnologik jarayonlardan iborat va bularni amalga oshirish uchun esa malakali muhandislar va olimlar talab qilinadi. Ushbu muhandislar va olimlar an'anaviy texnologik tizimlar bilan taqqoslaganda tubdan farq qiladigan nanotexnika va nanosistemalarni loyihalashtirish, tahlil qilish va yaratish uchun matematika, fan va muhandislik bilimlarini qo'llash qobiliyatiga ega bo'lishlari kerak.

Nanotexnologiyani fizika, kimyo va biologiya fanlariga tatbiq qilgan va qilinmoqda. Nanotexnologiyani ta'lim tizimiga tatbiqi katta o'zgarishlar va yangiliklar qilish imkoniyatini beradi. Ayrim rivojlangan mamlakatlar nanotexnologiyalarni ishlab chiqarishda ancha ilgari ketgan va ko'p tajribaga ega muhandis va olimlar bor. Biz ularni tajriba va bilimlaridan andoza sifatida foydalansak bo'ladi. Yuqori malakali kadrlar tayyorlashda nanotexnologiya rivojlangan davlatlar bilan hamkorlikda ish olib borish mumkin[2]. Nanotexnologiyani ta'lim tizimida keng miqyosda qo'llash o'quvchilarda fanga bo'lgan qiziqishni orttiradi. Chunki nanotexnologiya har bir hodisa ro'y berish jarayonini eng kichik detallarigacha o'rganish imkonini beradi. Bundan tashqari o'quvchi yoshlar orasida rivojlanib kelayotgan robototexnika fanini ommalashishiga yordam beradi. Nanotexnologiyani rivojlantirish ko'plab sohalarda yangidan yangi ixtirolar qilish imkonini kengaytiradi. Masalan, ushbu soha nanoo'lchamli protsessorlarga ega bo'lgan kvant kompyuterlarini yaratish va ular uchun dasturlar ishlab chiqishni o'z ichiga oladi. Kvant kompyuterlarida bir birlik axborotni yozish uchun bitta yoki bir nechta atomdan foydalaniladi. Biz foydalanayotgan hozirgi zamon kompyuterlarida bu jarayonni bajarish uchun esa bir necha milliard atom sarflanadi. Demak, kvant kompyuterlarida hisoblash jarayonida o'z-o'zidan o'ta yuqori tezlik, ixchamlik va samaradorlik oshadi. Ushbu soha orqali fizika, biologiya, kimyo, genetika sohalorida ilmiy izlanishlar, tadqiqotlar olib borayotgan bakalavr va magistratura talabalar, olimlar uchun keng imkoniyatlar eshigini ochib beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Teshaboyev A., Zaynobidinov S., Ismoilov Q., Ermatov Sh., Abduazimov V. «Nanozarralar fizikasi, kimyosi va texnologiyalari» «KAMALAK-PRSS» nashriyoti. Toshkent 2014-yil.

2. Olimov L. «Nanofizika asoslari» «Yangi asr avlodi» nashriyoti. Toshkent 2014-yil. 140 b.



MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARINING O'RNI VA MASHG'ULOTLARNING AHAMIYATI.

Umbarova Sabohat Hamza qizi
Samarqand Davlat Universiteti.
Xalqaro ta'lim dasturlari fakulteti.
Telefon: +998 (97) 3929074

Anotatsiya: Maktabgacha ta'lim muassasalarining maqsadi. Bolalar qobiliyatini ochishda MTMlarining o'rni. Mashg'ulotlarning kompyuterlanishi. Mashg'ulotlarning bola ruhiyatiga ta'siri. Maktabgacha ta'lim sohasida yangi bosqichlarning yuzaga kelishi. Pedagoglar zimmasidagi ma'suliyatlar. Xalqaro munosabatlar va ularning ahamiyati.

Kalit so'zlar: Maqsad, onglik, texnologiya, sensor tarbiya, estetik tarbiya, intiluvchanlik, yangi ko'nikmalar, hujjatlar, xalqaro kelishuvlar, sensor tarbiya, metodika, salohiyat, konsepsiya.

“Erkin fuqaro ongli yashaydigan, mustaqil fikrga ega bo'lgan shaxs ma'naviyatini shakllantirish bizning bosh milliy g'oyamizbo'lishi zarur”.

*O'zbekiston Respublikasi
 Birinchi prezidentimiz I.A. Karimov.*

Kelajak avlodni tarbiyalash avvalambor oiladan boshlanadi, uni o'rab turgan muhitning sog'lomligi ham muhim ahamiyatga egadir. Bir oilada farzand dunyoga kelgach, albatta ota-ona uning kelajakda yetuk inson bo'lib yetishishini istab, farzandiga yetarlicha shart-sharoitlar yaratib berishga harakat qiladi. Afsuski, shunday oilalar borki, bolaga yetarlicha e'tibor bera olishmaydi. Bu qaysi davr? Tadqiqotlar natijasi shundaki, inson hayoti davomidagi 70 foiz ma'lumotlarni 3-5 yoshgacha bo'lgan davrda olar ekan. Sababi shundaki, oilalarning aniqlashicha bu davrda bolada ixtiyorsiz va mexanik xotira mavjud bo'lib, u aytilgan so'zlarni, atrofida yuz berayotgan hodisalarni tezlik bilan xotiraga kiritadi va uzoq muddatga saqlanib qoladi. Demak, bolaning bu davrida undagi qobiliyatlarni ochish yoki kelajakda o'z o'rnini topishga yordam beradigan turli mashg'ulotlarga qiziqtirish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi “Ta'lim to'g'risida”gi qonunning 11-moddasida: “Maktabgacha ta'lim bola shaxsini sog'lom va yetuk, maktabda o'qishga tayyorlash maqsadini ko'zlaydi. Bu ta'lim 6-7 yoshgacha oilada, maktabgacha ta'lim muassasalarida va boshqa xususiy ta'lim muassasalarida amalga oshiriladi”.

Mana yaqin 20 yil davomida maktabgacha ta'lim muassasalarining soni 45 foiga tushib ketganligi, aholi orasida esa bolalarning 3,35 foizigina qamrab olingani juda achinarlidir. Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarni hissiy, aqliy, estetik jihatdan tarbiyalashga qaratilgan. Bundan tashqari aholining ko'p qismini davlat ishchilari tashkil etganligi sababli, bolalarning qarovsiz qolganliklari ham maktabgacha muassasalariga bo'lgan ehtiyojni oshiradi. Lekin bu bilan, MTM lari bolalarni qarovsiz qoldirmaslik uchungina tashkil etilgan deyishimiz juda s

O'zbekiston Respublikasi Qonuni “Maktabgacha ta'lim to'g'risida”gi qonunning 4-moddasida maktabgacha ta'lim va tarbiyaning asosiy prinsiplari to'g'risida bo'lib, unda har bir bolaning qobiliyatlarini ochish, ularda o'zlariga nisbatan erkinlikni va ishonchni yuzaga chiqarish, har bir bolaning muassasada bir xil o'ringa ekanligi, ta'limning shaffoqligini ta'minlash to'g'risida so'z ketadi.

Xususan, 2017-2021-yillarga mo'ljallangan dastur natijasida chekka hududlarda ham maktabgacha muassasalar tashkil etildi. Bu dastur tashkil etilgunga qadar, bu soha aholi orasida hech qanday ahamiyatga ega emas edi. Keyinchalik esa bu sohaga qaratilgan e'tibor ham aholining fikrlashini to'g'ri ma'noda o'zgartirdi.

Tevarak atrofda borliqni bilish sezgi va idrokka asoslanadi. Tasavvurning asosini ham bevosita sezish va idrok etish tashkil etadi. Bu borada ham muassasalarda bolalarda rivojlantirishda yangi metodlar, o'yinlar tashkil tiladi. Pedagogikada bolalardagi aqliy, hissiy, estetik, jismoniy va mehnat tarbiyalari asosi-sensor tarbiya deb yuritiladi. Maktabgacha bo'lgan davr aynan sensor tarbiyani rivojlantirishga qaratilgan davrdir.

Shifokor-pedagog Mariya Montessori texnologiyasi asosi aynan shu sensor tarbiya bilan bog'langan holda edi. Bu texnologiya ma'nadan yetuk, mustaqil fikrlovchi, intiluvchan shaxsni



tarbiyalashda muhim o‘rin tutadi. U yaratgan maktabgacha ta’lim-tarbiya metodikasi maktab yoshidagi bolalarni tarbiyalash borasidagi barcha metodlar va qoidalar orasida alohida ajralinib turadi. Agar ota-onalar o‘z farzandlariga rahmdillik, mehr-muruvvat tuyg‘ularini uyg‘ota ololishmas ekanlar, u holda bolalar nafaqat begona odamlarga balki o‘z ota – onasiga ham hissiz bo‘lib qoladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Koreya Respublikasiga davlat tashrifi doirasida Maktabgacha ta’lim vazirligi tomonidan 20 ga yaqin uchrashuvlar o‘tkazilib, tajriba almashinuvlari va O‘zbekistonda eksperimental bog‘chalar tashkil etib, ilmiy izlanishlar olib boorish imkoniyatlarini o‘rganib chiqish bo‘yicha kelishuvlar belgilandi. Bu kabi xalqaro kelishuvlar, albatta, biz yosh avlodning kelajakdagi hayotimiz uchun yaratib berilayotgan bir ko‘prikdir. Biz esa bu ko‘prikdan qay darajada o‘tishimiz, undagi qiyinchiliklarga tayyorlanishimizda esa malakali pedagoglarning o‘rni behisobdir.

Xulosam shundan iboratki, ta’lim va tarbiya jarayonida pedagoglarga faqatgina hujjatlarga, qonun-qoidalarga bog‘lanib qolib emas balki ijodkorlik salohiyati bilan yondashishni o‘rgatib borish lozim. Har bir yosh bosqichida ruhiy, jismoniy, aqliy salohiyatlarning rivojlanishi ta’lim jarayoniga bog‘liq. Pedagog-tarbiyachilar kichik guruh tarbiyalanuvchilari bilan mashg‘ulot olib borish jarayonida bolalarning sensor rivojlanishiga, “Men konsepsiyasi” shakllanishiga alohida e’tibor berib borishlari shart hisoblanadi. Yurtimiz farzandlarining har jabhada yetuk bo‘lishlari, har bir sohada o‘z qobiliyatlarini namoyon etishlarida maktabgacha ta’lim jarayoni bosqichi poydevor sanaladi.

Qo‘llanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Turg‘unbekov K. Pedagogika mahorati asoslari. Andijon 2002.
2. “O‘zbekiston Respublikasi Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun. 1997.
3. “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”. Toshkent-1997.
4. “Ilk qadam davlat dasturi”. 2018.
5. Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yilgan Davlat talablari.
6. “Sog‘lom bola yili” davlat dasturi.
7. I.A.Karimov “Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch”.
8. Barkamol avlod- O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori.
9. “Barkamol avlod yili” davlat dasturi. 2010.

Qo‘llanilgan Internet saytlari:

1. www.pedagog.uz
2. www.ziyonet.uz
3. www.edu.uz
4. www.kindergarden.com
5. www.lex.uz



WAYS OF MOTIVATION IN TEACHING YOUNGLEARNERS.

Xolikova Shaxnoza Xoliq qizi
the student of the Shakhrisabz branch of
Tashkent institute of Chemical Technology.

Annotation. Methods of motivating younglearners are studied.

Keywords. Intrinsic motivation, extrinsic motivation, external factors, main aim.

A variety of factors can create a desire to learn. Perhaps, the learners love the subject they have chosen, or maybe they are simply interested in seeing what is like. Perhaps, as with young children, they just happen to be questioning about everything, as well as learning. Some students have a practical reason for their study: they want to learn an instrument so they can in an orchestra, learn English so they can watch American TV or understand manuals written in English, study Thai Chi so that they can become fitter and more relaxed, or go to cooking classes so that they can prepare better meals. This desire to achieve some goal is the bedrock of motivation and, if it is strong enough, it provokes a decision to act. For an adult this may involve enrolling in an English class. For a teenager it may be choosing one subject over another for special study. This kind of motivation, which comes from outside the classroom and may be influenced by a number of external factors such as the attitude of society, family and peers to the subject in question, is often referred to as extrinsic motivation, the motivation that students bring into the classroom from outside. Intrinsic motivation, on the other hand, is the kind of inspiration that is generated by what happens inside the classroom; this could be the teacher's methods, the activities that students take extrinsically motivated, sustaining that motivation can be more difficult than we thought it was going to be. One of the teacher's main aims should be to help students to sustain their motivation. We can do this in a number of ways. The activities we ask students to take part in will, if they involve the students or excite their curiosity and provoke their participation help them to stay interested in the subject. We need, as well, to

select an appropriate level of challenge so that things are neither too difficult nor too easy. We need to display proper teacher qualities so that students can have self-reliance in our abilities and professionalism. We need to consider the issue of affect that is, how the students feel about the learning process. Students need to feel that the teacher really cares about them; if students feel supported and valued, they are far more likely to be motivated to learn. One way of helping students to sustain their motivation is to give them, as far as is feasible, some agency which means that students should take some responsibility for themselves, and that they should be the "doers" in class. This means that they will have some decision-making power, perhaps, over the choice of which activity to do next, or how they want to be corrected, if students feel they have some influence over what is happening, rather than always being told exactly what to do, they are often more motivated to take part in the lesson. Other ways of promoting student self-reliance include having them read for pleasure in their own time and find their own resources for language practice. Getting students to do various kinds of homework, such as written exercises, compositions or further study is one of the best ways to encourage student autonomy. What is important is that teachers should choose the right kind of task for the students. It should be within their grasp, and not take up too much of their time or occupy too little of it by being trivial. Even more importantly than this, teachers should follow up homework when they say they are going to, imposing the same deadlines upon themselves as they do on their students.

References.

1. Jeremy Harmer. "How to teach English" Pearson Education Limited 2007.
2. "Read and Understand" Betty Kirkpatrick, Rebecca Mock. Learners Publishing 2009.
3. Crandall, J.A. 2000. Language teacher education. Annual Review of Applied Linguistics 20: 34-55
4. Freeman. D. series ed. Teacher Source Series Boston, MA: Heinle & Heinle Publishers.

**ЖИНСИЙ АЪЗОЛАР ПРОЛАПСИ БЎЛГАН АЁЛЛАРДА ҚИН МИКРОБИОЦЕНОЗИНИ ЎРГАНИШ.**

Самарқанд Давлат тиббиёт институти
II курс магистратура резиденти
Абдиева Шохсанам Камолутдин қизи
Илмий раҳбар: PhD асс. Насимова Нигина Рустамовна
Телефон: +998996749305
naasaf2021@ru

Аннотация: Жинсий аъзолар пролапси бўлган аёлларда қин микробиоценози ҳолати жаррохлик даволаш натижаларида катта аҳамиятга эга. Жинсий аъзолар пролапси бор беморларда жаррохликдан олдин ва кейин қин микробиоценози хусусиятларини бактериологик ва бактериоскопик урганилиб чиқилди. Қин девори атрофияси ва етарли микдорда эстроген бўлмаганлиги сабабли бу гуруҳ аёлларда дисбиоз ҳолати кучайганлиги аниқланди.

Калит сузлар: Жинсий аъзолар пролапси, қин микробиоценози.

Ишнинг мақсади: Жинсий аъзолар пролапси бор беморларда жаррохликдан олдин ва кейин қин микробиоценози хусусиятларини урганиш.

Текширув материаллари ва услублари: Самарқанд вилоят Перинатал маркази гинекология бўлимида ва тиббиёт хусусий “Доктор” фирмасида 2019-2020-йилларда даволанган жинсий аъзолар пролапси бор бўлган 50 нафар беморлар.

